

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

MAVZU: PROZAIK ASARLARDA OLMOSHLARNING QO'LLANISHI

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajardi: Erbo'tayeva M.

Ilmiy rahbar: dots.Suvonova R.

Malakaviy bitiruv ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2011–yil 20-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (bayonnomasi №___)

Kafedra mudiri:

prof.A.Abdusaidov

Malaviy bitiriv ishi YaDAKning 2011-yil ----- iyundagi majlisidahimoya qilindi va ----- foizga baholandi (bayonnoma № ___)

YaDAK raisi:

A'zolari:

SAMARQAND - 2011

REJA:

Kirish.

I bob. O'zbek tilida olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlari.

1.1. Olmosh va ularning turlari.

1.2. Olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlari.

II bob. Badiiy matnlarda olmoshlarning semantik-stilistik xususiyatlari.

2.1. Prozaik asarlarda olmoshlarning qo'llanishi.

2.2. Poetik asarlarda olmoshlarning qo'llanishi.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Bugun o'zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, uning mantiqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish hayotimizning tarkibiy qismiga aylandi. Ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi tilshunosligimiz oldiga yuksak vazifalarni qo'ydi. Hozirda o'zbek tilshunosligi sezilarli darajada muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Lisoniy birliklarni yangidan yangi metod va usullar asosida tadqiq etishga tilni, uning birliklarini tobora chuqurroq, teranroq tadqiq eta borib, lisonimizning yagona tizm ekanligi va uning qator kichik tizimlardan iborat ekanligini isbotlashga alohida e'tibor berilmoqda. Biroq bu borada kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan yuzlab muammolar, masalalar o'zining to'la to'kis yechimini kutmoqda. Shulardan biri alohida xususiyatlarga ega bo'lgan olmoshlarni stilistik yo'nalishda tahlil etishdir. Olmoshlarning semantik-stilistik xususiyatlari esa badiiy matnlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Olmoshlarning badiiy mantlardagi xususiyatlari alohida o'rganilishi lozimligi tanlangan mavzu dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nutqda olmoshlar o'zining leksik-grammatik vazifasidan tashqari nutqiy vaziyatga qarab turlicha stilistik vazifalarni doim ado etadi va emotsional, ekspressiv bo'yoqdorlikni vujudga keltiradi. Ammo bu borada U.Suyarov, R.Qo'ng'urov, M.Asqarova, T.Akramov, B.Isabekov, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, M.Hamrayev. M.Pozilova, Y.Tojiyev, E.Qilichev va boshqalarning monagrafik tadqiqotlarida, o'quv qo'llanmalarida yo'l - yo'lakay aytib o'tilgan fikrlar va sanoqli maqolalargina mavjud. Bu manbalarda olmoshlarga xos bo'lgan stilistik jihatlarning ayrim qirralari ochib berilgan, xolos.

Tadqiqot ishining tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'rganilayotgan mavzular tarkibiga kiradi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek tili olmoshlarini badiiy matnda semantik-stilistik xususiyatlarini o'rganishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutildi.

- olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish;
- nutqiy vaziyatga bog'liq holda olmoshlar sinonimiyasini tahlil etish va ularning faollik darajasini belgilash;
- olmoshlarning semantik va emotsional, ekspressiv ottenkalari shakillanishining stilistik shart-sharoitlarini aniqlash;
- badiiy nutqda til birliklari orasida olmoshlarning o'rnini belgilash;
- poetik va prozaik matnlarda olmoshlarning stilistik xoslanishlarining, funksional chegaralanishlarining ekstralingvistik jihatlariga e'tiborni qaratish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Badiiy matnda olmoshlarning semantik-stilistik xususiyatlari ilk bor tadqiqot ishi tarzida tadqiq etildi. Unda olmoshlar sinonimiyasi, uning nomunativ asoslari, olmoshlarning semantik ma'no taraqqiyoti va emotsional ekspressiv ottenkalari yuzaga kelishini uslubiy shart-sharoitlari, bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqaruvchi lingvistik va ekstvolingvistik omillar tahlil qilindi. Ishda olmoshlarning badiiy nutqda tutgan o'rnini aniqlandi va bu uslubdagi stilistik o'ziga xosliklar ochib berildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.

- Olmoshlarning nafaqat leksik, grammatik xususiyatlari balki alohida stilistik xususiyatlariga ham ega ekanligi;
- Olmoshlar qo'llanishdagi faollik darajasi ularning o'zbek tili uslublararo funksional darajaga olib kelishi;

- Olmoshlarning badiiy nutqda namoyon bo'ladigan lingvistik imkoniyatlari stilistik salohiyat omili ekanligi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Badiiy nutq o'zining keng qirraligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi. Badiiy nutqda tildagi barcha so'zlar o'zining butun imkoniyatlari bilan ishtirok etadi, shu jumladan olmoshlar ham badiiy nutqda o'ziga xos o'rin egallaydi. Ishda olmoshlarning ushbu uslibdagi semantik-stilistik xususiyatlari atroflicha tahlil etiladi, olmoshlarga xos bo'lgan nutqiy imkoniyatlar va ularning tahlili ilmiy asosga qo'yiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Ishda semantik-uslubiy, matniy, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, R.Qo'ng'irov, I.Suyarov, B.O'rinboyev, B.Yo'ldoshev, S.Karimov va boshqalarning shu yo'nalishda olib borgan kuzatishlaridagi nazariy qarashlar va tadqiq metodlariga ham tayanildi.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqot mavzusi badiiy matn bilan bog'liq bo'lganligi uchun A.Qahhor, O.Yoqubov, E.Vohidov. A.Oripov, O'.Hoshimov, X.Sultonov, O.Matjon, U.Azim, M.Ali, T.Murod, M.Yusuf singari taniqli o'zbek adiblari asarlaridan olingan misollar tadqiqot uchun manba va material vazifasini o'tadi. Shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" singari leksikografik manbalardan ham foydalanildi.

Tadqiqotning sinovdan o'tishi va joriylanishi. Malakaviy bitiruv ishi Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida yig'ilishida qilingan muhokamada ma'qullanib, himoyaga tavsiya qilingan.

Tadqiqot tuzilishi. Ish kirish, II bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish

Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov o'zining nutqlaridan birida shunday degan edi. "Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqish ortib bormoqda".¹ Bu so'zlar bevosita o'zbek tilining so'z boyligini to'plash va tadqiq etishga da'vat qiladi. Chunki ona tili – bu millatning ruhidir. Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida bu fikrni qayta-qayta ta'kidlab: "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi", - degan². Shuning uchun ham yurtboshimiz ona tilimizni rivojiga alohida e'tibor bermoqda. Yurtboshimizning sa'y-harakatlari bilan ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi xalqimiz ma'naviy-marifiy salohiyatining yanada yuksalishiga asos bo'lgan. Shu ma'noda bugun o'zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, uning nutqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish faoliyatimizning tarkibiy qismiga aylandi. O'zbek tili birliklarini (jumladan, barcha so'z turkumlariga oid lug'aviy birliklarni) fonetik, fonologik, morfonologik, leksik, semantik, stilistik, pragmatik jihatdan o'rganish keng ko'lamda amalga oshirilmogda. Binobarin, bu borada hal etilishi va chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar anchagina. Bugungi kunda bo'layotgan jamiyatdagi o'zgarishlar, taraqqiyot tilimizda ham o'z aksini topmogda. Tildagi bu o'zgarishlar oddiy va adabiy so'zlashuv uslubida dastlab o'z aksini topsa, ikkinchi navbatda badiiy asarlarda ham ko'rinish beradi. Shuning uchun asrlar davomida tarix silsilasida sayqallanib, rivojlanib kelayotgan tilimizning bepayon imkoniyatlarini o'zida xolis tajassum etgan, eta oladigan narsalardan biri badiiy asarlardir. Badiiy asar tilini o'rganish o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Shu sababdan asar tili umumxalq tilida mavjud

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. 3- бет.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 83 – bet.

bo'lgan lug'aviy vositalarning ifodadorlik ko'lamini ko'rsatuvchi, uni rivojlantirish yo'llarini belgilovchi manbadir.

Badiiy adabiyot davrga xos ravishda rivojlanar, unga nisbatan talab o'zgarar ekan, badiiy asar tilini o'rganish metodlari, qonuniyatlari ham o'zgarib boraveradi. Masalan, davrning o'ziga xos aksi bo'lgan Tohir Malik, Erkin A'zam, Azim Suyun, Tog'ay Murod, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, X.Sultonov asarlarida bugungi kun mavzulari ifodalangan bo'lib, ularning tili ham o'ziga xosdir. Mana shu o'ziga xoslikni tilshunoslik nuqtai nazardan ochib berish bugungi kun tilshunoslarining dolzarb muammolaridan ekanligini bu o'rinda ta'kidlab o'tish lozim. Zero, badiiy adabiyot tilni rivojlantiruvchi, adabiy me'yorni shakillan-tiruvchi manbalardan biridir.

Badiiy uslubda barcha vositalar kabi so'z turkumlarining ham vazifasi alohida. Shuning uchun badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog'liq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Morfologik birliklarning estetik vazifaga, shuningdek ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik – emotsionallik ifodalanishi tushuniladi. Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan (birliklarni) so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Ijobiy va salbiy ma'no qirralariga ega bo'lgan so'zlar, albatta, ma'lum bir so'z turkumida bo'ladi. Bizga ma'lumki ot, sifat, fe'l so'z turkumlariga oid bo'lgan so'zlarning badiiy matndagi qirralari yaqqol ko'zga tashlanadi. Biroq olmoshlar ham badiiy matnda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Biz o'z malakaviy bitiruv ishimizda olmoshlarning badiiy matndagi semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik.

I bob

I.I. O'zbek tilida olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlari.

Olmoshlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi. 1) Kishilik olmoshlari: men, biz (I shaxs); sen siz (II shaxs); (y) u, ular (III shaxs); 2) Ko'rsatish olmoshlari: bu, shu, o'sha, mana shu, mana bu, ana shu kabilar; 3. So'roq olmoshlari: kim, nima, qanday, necha, qaysi, qancha, nega, qalay kabilar. 4. O'zlik olmoshi: o'z; 5. Belgilash jamlash olmoshlari: hamma, butun barcha, bari, har kim, har qanday (hech qaysi) kabilar; 6. Bo'lishsizlik olmoshi: hech kim, hech qanday, hech nima, hech qaysi kabilar; 7. Gumon olmoshlari: allakim, allaqanday, allaqaysi, kimdir, nimadir, allanima kabilar.

Kishilik olmoshlari shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Ba'zan kishilik olmoshlari shaxsni ifodalashi bilan birga, ko'rsatish ma'nosini ham bildiradi. Shunga ko'ra, kishilik olmoshlarini ikkiga bo'lish mumkun:

1. sof kishilik olmoshlari (men, sen, biz, siz);
2. kishilik – ko'rsatish olmoshlari (u, ular)sof kishilik olmoshlari faqat shaxsni ko'rsatuvchi, ular so'zlovchi va tinglovchini ifodalovchi olmoshlardir.

Kishilik – ko'rsatish olmoshlari esa (u, ular) kishilik bilan bir qatorda ko'rsatish olmoshi vazifasini ham bajaradi. Bu olmosh ot o'rnida qo'llanib keladi. Otning o'rnini bosadi.

Kishilik olmoshlari nutq jarayonida uch xil shaxsni – I, II, III shaxslarni bildiradi. I – shaxs (men) – so'zlovchini, II shaxs (sen) - so'zlovchi murojaat qilayotgan shaxsni – tinglovchini, III shaxs (u) – nutq jarayonida ishtirok etmagan, so'zlovchi yoki tinglovchi eslatib o'tayotgan shaxsni yoki ko'rsatilayotgan predmetni ifodalaydi. Bular birlikni ko'rsatuvchi kishilik olmoshlaridir. Ko'plikda kishilik olmoshlaridan biz olmoshi bir qancha so'zlovchilarni emas, so'zlovchi boshqa shaxslarni, siz (II shaxs ko'plikdagi) olmoshi esa tinglovchini va boshqa shaxslarni bildiradi. Shunday qilib, biz, siz olmoshlari tarkibida I va II shaxs ishtirok etgan shaxslar to'dasini ifodalaydi.

III shaxs ko'plikdagi ular olmoshi so'zlash jarayonida ishtirok etmagan birdan ortiq boshqa shaxsni yoki predmetlarni ifodalaydi. Ular bizga yetib olishsin. Kishilik olmoshlari ko'plik qo'shimchasi – "lar"ni olish bilan ko'plikni ko'rsatmaydi.

Men olmoshi – lar qo'shimchasini qabul qilmaydi. Sen olmoshi esa – lar qo'shimchasi bilan qo'llangandan, tinglovchi va boshqa shaxslarga qo'shimcha munosabatni yoki tinglovchini bir oz kamaytirish ma'nosini bildiradi: Senlarga aytayapman (sen va boshqalarga aytayapman). –lar qo'shimchasi III shaxs birlikdagi u olmoshiga qo'shilib keladi: u keldi – ular keldilar. Biz va siz olmoshlariga qo'shilganda ma'nosini bir oz kuchaytirish ma'nosini shuningdek, so'zlovchi va boshqalar to'dasini – ko'plikni bildiradi. Egalik qo'shimchalari kishilik olmoshlariga, odatda qo'shilib kelmaydi. Ba'zan III shaxs kishilik olmoshi ko'rsatish ma'nosida kelganda, otlashib egalik qo'shimchalari qabul qilishi mumkun:

Kishilik olmoshlari kelishilik qo'shimchalarining olib turlanishi mumkun. Meni, uning, seni, sizda, sizga, ulardan kabi. Kishilik olmoshlarining I va II shaxs birlik formalari tushum va qaratqich kelishigidagi bilan turlanganda bir n tovushi tushib qoladi: menning, senni emas, meni – mening, seni – sening.

So'roq olmoshi.

So'roq olmoshlari orqali so'zlovchi nutq jarayonida ishtirok etuvchilardan o'ziga ma'lum bo'lmagan narsani aniqlab bilishga intiladi.

So'roq olmoshlari shaxsga (kim?) predmetga (nima?), belgiga (qaysi?), (qanday?), miqdorga (necha? qancha?), vaqtga (qachon?), maqsad va sababga (nega? nimaga?) va o'riniga (qani?) munosabat anglatadi. Ba'zi so'roq olmoshlari qo'shma gapna nisbiy so'z vazifasida kelgani uchun so'roq-nisbiy olmoshlari deb nomlanadi: Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi. Nimani buyursang, shuni keltiraman. Ergash gapda kelgan bunday so'roq olmoshlari so'roq ma'nosini yo'qotgan bo'ladi.

O'zbek tilida qo'llanadigan so'roq olmoshlari asosan quyidagi xususiyatlarga ega:

Kim olmoshlariga shaxslarga nisbatan qo'yiladi. Bu olmoshning qo'llanishida quyidagi xususiyatlar bor:

1. Shaxsga nisbatan so'roqni ifodalagani uchun ot xarakterida keladi va otlar kabi egalik va kishilik qo'shimchalarini qabul qiladi. Mening kimim bor? Ayrim vaqtda juftlanib kelib shaxslarning kimligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Juftlanib kelganda har ikkisi birlikda yoki oldingisi birlikda keyingisi ko'plik formasida qo'llanilashi mumkin.

2. Nisbiy so'z vazifasida kelganda ma'noni kuchaytirish uchun – ki yoki – da, + kim yordamida qo'shib ishlatiladi. Kimki ko'p ishlasa, u ko'p haq oladi. Kimdagi (m) vijdonan ishlasa, u hurmatga sazovor bo'ladi.

3. Kim olmoshi – sa qo'shimchasini olib otga qo'shadi: kimsa. Bu so'z hech, har so'zlari bilan kelishi yoki – siz qo'shimchasini olishi mumkin. Kim olmoshi gapda ko'pincha ega, kesim, to'ldiruvchi, ba'zan aniqlovchi va hol bo'lib keladi;

4. Nima olmoshi takrorlanib, har ikkisi bir xil shakllarida yoki oldingisi birlikda, keyingisi ko'plik qo'shimchasini olgan holda keladi: nima – nima olding, nima-nimalar olding?

Nima so'zi ba'zan ne shaklida (yolg'iz, yo takrorlangan holda: a) predmetiga nisbatan qo'llanilgan nima so'roq olmoshi o'rniga ishlatiladi. .. tuz aynisa ne sotadi? b) predmetbelgisini ifodalovchi qanday olmoshiga yaqin vazifada yoki gapning mazmuniga qarab yomon, ko'p degan ma'nolarda ishlatiladi. U qo'rquvdan ne ahvolda ekanini o'zi bilar edi)

Necha olmoshi otlashib, kishilikning hamma shakllariga kela oladi: nechanchi, nechaga, nechaning, nechadan. Necha so'zi predmet miqdoriga nisbatan so'roqni ifodalaganda sonlarga o'xshash qo'shimchalar bilan birga qo'llanadi. Necha kilometr yo'l bosdim ekan? Gapda aniqlovchi va kesim bo'lib keladi. Necha kishi keldi?

Qanday olmoshi predmet yoki harakatning belgisiga nisbatan so'roqni bildiradi. Bu so'z qanaqa, qandoq shaklida ham kelib, yuqoridagi ma'noni ifodalashi mumkun. Qaysi olmoshi predmetning tarkibiga yoki o'rniga ko'ra belgisini aniqlash uchun qo'llanadi: qaysi kishi? Qaysi uy?

Ergash gapli qo'shma gaplarda qaysi olmoshi nisbiy so'zlarning birinchi qismi bo'lib keladi. Qaysi kishi tirishib halol ishlasa, u hurmatga sazovor bo'ladi. Qancha olmoshi son – ravish xarakteriga ega bo'lib, predmet yoki harakatning miqdoriga ko'ra belgisini aniqlash uchun beriladigan so'roqni ifodalaydi. Ko'p predmetning miqdorini aniqlash uchun qo'llanganda, o'zidan keyingi ot ko'pincha birlikda keladi. Qancha kitob olding? – o'nta kitob oldim. Taxminiy miqdorini aniqlash uchun qo'llanganda, ba'zan – cha qo'shimchasini qo'shib keladi. Qancha yerni haydadingiz?)

Nisbiy so'zlarni birinchi qismi bo'lib kelib, daraja – miqdorni ifodalash uchun qo'llaniladi. Yerda qancha nam ko'p bo'lsa, urug' shuncha tez unib chiqadi.

Ko'rsatish olmoshlari shaxs, narsani va ularning belgisini, bir turdagi narsalardan bittasini ajratib ko'rsatish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Qaysi so'rog'iga javob bo'ladi. Ko'rsatish olmoshlariga, bu, shu, o'sha, mana bu, mana shu, ana shu, ana u olmoshlari kiradi. Din niqobi ostida hokimiyatni egallamoqchi bo'lgan bu g'alamuslar aybsiz jazolandi. (P.Qodirov. Ona lochin vidosi, 40- bet)

Ko'rsatish olmoshlari so'zlovchi bilan ko'rsatilayotgan narsa sodir bo'lgan vaqtga qarab ishlatiladi, ma'nolari hamisha asosda aniqlanadi. Bu olmoshi so'zlovchiga ancha ayon, so'zlovchiga nisbatan ancha yaqin masofada turgan yaqindagi eslatadigan narsa, voqeani ko'rsatishga xizmat qiladi: Bu kunlar pok, ipak nurlar, nafis tanlar-la o'ynashi. (H.Olimjon. 10 tomlik, 1 tom T, 1979 64-bet) Shu olmoshi ham, bu olmoshi kabi ma'noga ega, ammo shu olmoshida ta'kid ma'nosi kuchli. Endi hadeb qaysarlik qilmasdan rozi bo'ling. Baribir qaytadigan joying shu.

U olmoshi esa so'zlovchiga nisbatan ancha uzoqda turgan yoki ancha ilgari eslatib o'tilgan narsalarni ko'rsatadi. O'sha ko'rsatish olmoshi so'zlovchiga

ilgaridan ma'lum bo'lgan, ilgari eslatib o'tilgan narsa (fa), vaqt yoki hodisaning ajratib ko'rsatishga hizmat qiladi. ...Dadang bugun o'sha... shotut amakingni uchratib qopti (U.Nazarov. O'zgaralar uchun, 9-bet)

Ko'rsatish olmoshlariga mana, ana so'zlari qo'shib ishlatiladi.

Mana shu, mana bu, ana shu kabi olmoshlar yaqin masofadagi narsani ajratib ko'rsatadi. Uning vaqt, masofa jihatdan so'zlovchiga yana ham yaqinligini ta'kidlaydi. Ana u, ana o'sha olmoshlari esa ancha uzoqda turgan yoki oldindan ma'lum narsalarni ko'rsatadi. Ana shunda imlo ajab bir soddalik kasb etadi, jami mavhumliklar tugatiladi. (X.Sultonov. Bobur tushlari, 225-bet)

Mana, ana so'zlari ko'rsatish ma'nosini bildirib yakka holda ishlatiladi. Mana ko'z oldimda bolalikning shod do'stlari, yorlari, qadrdonlari. Ana... tag'in Saida Mirzayevaning chehrasi hayolida namoyon bo'lib, dardkash ovozi mayin ishlatilayotganday tuyulayapti: ishon, Sevarajon xizmatigizning bu qadar chigalligi!... (N.Qilichov. Chig'iriy, 10-bet)

Jamlash – belgilash olmoshlari predmet va shaxslarning yig'indisini, to'dasini bildiradi yoki ularni ayirib, ta'kidlab ko'rsatadi.

Jamlash olmoshlariga hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi so'zlari kiradi. Hamma olmoshi predmet va shaxslar o'rnida qo'llanib ot vazifasida, predmet belgisini ko'rsatib sifat vazifasida keladi. Jami olmoshi ham yuqoridagi olmoshga o'xshash ko'pincha ot xarakterida qo'llanadi. Uning tarkibidagi – i III shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi. Bu so'z ham ko'pincha qaratqich kelishigidagi so'z bilan qo'llanadi. Egalik qo'shimchasi ikki darajali bo'lib ham qo'llana oladi. Bolalarning jami dalada – bolalarning jamisi dalada.

Barcha (bor + i -cha) olmoshi ko'proq sifat o'rnida qo'llanib predmetning miqdoriga ko'ra belgisini ifodalaydi. Barcha odamlar maydonga chiqdi. U barcha qilmishlariga iqror bo'ladi.

Butun (but + un) olmoshi sifat va ravish o'rnida qo'llanib, miqdorga ko'rapredmet yoki harakatning belgisini ifodalaydi. Har so'zi so'roq olmoshlarida kim so'zi bilan kelib, "hamma", "har qanday odam" degan ma'noni ifodalaydi.

Qaysi olmoshi bilan birga sifat vazifasida keladi va ma'nosi jihatdan har bir olmoshiga o'xshaydi. Har qaysi guruh so'zning boshida bo'lishini istardi. Qachon olmoshi bilan birga kelib, "hamma vaqt" degan ma'noni bildiradi. Bu gapni har qachon takrorlay bersa kerak.

Har olmoshi ba'zi jamlovchi va dona sonlar bilan birga qo'llanib, shu sonlarni ta'kidlab ko'rsatadi: Unib chiqqan har bitta nihol unga sevinch baxsh etardi. O'g'illarining har uchulasi ham bedarak ketdi. Qizlarning har ikkovi ham juda odobli.

Har so'zi so'roq olmoshlarida kim so'zi bilan birga kelib, "hamma", "har qanday odam" degan ma'noni ifodalaydi.

Bo'lishsizlik olmoshlari. Inkor olmoshlari ma'no jihatdan belgilash olmoshlarining zidi bo'lib, barcha predmet yoki belgiga nisbatan inkor ma'nosini bo'lishsizlikni bildiradi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gapning kesimi inkor shaklida kelib, gap inkor gap hisoblanadi. So'roq olmoshlari hech so'z bilan birikib kelganda so'roq olmoshlarining ma'nosi o'zgarib, shaxs (hech kim), predmet (hech nima), miqdor (hech qancha), belgilovchi so'zlar hosil qiladi. Hech kim olmoshi inkor gaplar tarkibida uyushgan bo'laklarning umumlashtiruvchi so'zi vazifasida ham kela oladi. Unga na yo'lovchi, na samovarchi – hech kim e'tibor qilmadi.

Hech nima olmoshi predmet yoki voqea - hodisaga nisbatan inkorni bildiradi. Biroq Saidaning yuzida hech qanday o'zgarish yo'q edi-ku!

Hech nima olmoshi (predmet) ham ko'pincha otlar o'rnida kelib, otlarga xos egalik va kishilik qo'shimchalarini oladi. Gapda otlar kabi vazifani bajaradi: Mening hech nimam yo'q. Hech nimadan tap tortmaydigan odam. Hech qanday olmoshi predmet belgisiga nisbatan inkorni bildiradi: Saidaning yuzida hech qanday o'zgarish yo'q edi. (A.Qahhor)

Hech qanday so'zi paytga nisbatan inkor ma'nosini bildiradi. Gapda ravish o'rnida qo'llaniladi – ish harakatning yuzaga kelmaganini bildiradi. Kimsa so'zi ham bo'lishsizlik olmoshi o'rnida qo'llanilib shaxsga nisbatan inkor ma'nosini

bildiradi. Lekin shaftoliga kimsa boqmaydi. (Oybek) Hech kim boqmaydi. Uyda kimsa yo'q edi. – hech kim yo'q edi.

Gumon olmoshi muayyan predmet, shaxs, belgi yoki harakat xususida o'ta muhim tushunchani bildiradi. So'roq olmoshi bilan qo'shilib keladigan alla va dir birligi ushbu olmoshga noaniqlik ma'nosini kiritadi. Gumon olmoshlari, asosan, ot va sifat o'rnida qo'llaniladi. Yo'lakda Safoxonning kimgadir shang'illagani eshitildi. (X.Sultonov. Bir oqshom ertagi, 53-bet)

Alla olmoshi ba'zi so'roq olmoshlari bilan birga gumon olmoshlarini yasaydi: allakim, allanima, allaqanday va boshqalar.

Allanima olmoshi ko'pincha ot o'rnida ishlatilib, turli kishilik qo'shimchalari, egalik va ko'plik qo'shimchalarini oladi. Bobom goho behushday allanimlarni shivirlab qo'yadi. (Oybek) Mehri yuragini zulukday so'rib yotgan allanimalardan qutilib chiqdi. (A.Qahhor)

Allanima olmoshi o'rnida ba'zan xos ma'no vazifasida allanarsa olmoshi ham qo'llaniladi. Allanarsaning portlashidan uyg'onib ketdim. (S.Ahmad)

Allakim olmoshi shaxslarga nisbatan noaniqlik ko'rsatadi. Allaqanday (alla qanaqa) olmoshi predmetning belgisi noaniq ekanligini ko'rsatadi. Alla qanday qurilishlar bo'yicha ministr muovini bo'lib ishlaydi. (U.Nazarov. O'zgaralar uchun)

Allaqaysi olmoshi ham, yuqoridagi olmosh kabi, predmet belgisining noaniqligini bildiradi. Ota-onasi yo'q dedilar, allaqaysi qishloqdan rizq axtarib kelgan dedilar. (U.Nazarov. Chayon yili 33-bet) Allaqayer olmoshi o'ringa nisbatan noaniqlikni bildiradi. U, dunyoning allaqayerida bir umr shunday tirikchilik qiladigan odamlar borligini hamma tasavvur ham etolmasa kerak, -deb o'yladi. (X.Sultonov. Bir oqshom ertagi, 82-bet)

Allanechuk olmoshi ko'pincha harakatning noaniq holatda yuzaga kelishi, tushunarsiz holda sodir bo'lishni ko'rsatadi. Bu olmosh holat ravishi vazifasini o'taydi. Juda yarashdi, opacha, - dedi novcha yigit, allanechuk ishshayib (N. Qilichev. Chig'iriq,16-bet) Ba'zan allanechuk so'zi noaniq belgi ma'nosini ham ifodalaydi.

Allaqancha olmoshi miqdorga nisbatan noaniqlikni bildiradi. U kishi tog' yo'lidan allaqancha yo'l bosishi kerak. (Said Ahmad)

Allaqacha olmoshi ham paytga nisbatan belgining ortiq ekanligini, ko'pligini bildiradi. Otasining o'lganiga va o'zi shaharga kelib yashayotganida allaqancha vaqt o'tdi. Noaniq gumon olmoshi ko'pincha so'roq olmoshlariga –dir qo'shimchasi qo'shilishi orqali hosil qilinadi. Kimdir, nimadir, qandaydir, qaysidir va boshqalar.

Noaniqlik shakli –dir ko'plik, egalik va kishilik qo'shimchalaridan so'ng qo'shib ketadi. Nimadandir mulohza qilib, hech narsa demadi, (A.Qahhor) Qora qo'ylardadir yer rangi-shafoq. Qorigan qayg'lar sudranar g'ijim. (R. Pafi Tavba, 19-bet Kim nima olmoshlariga qo'shib, noaniq shaxs yoki predmentni Yo'lakda safozanning kimgadir shang'illagani eshitildi, so'ngra eshik ochib o'zi kirib keldi.(X.Sultonov. Bir oqshom ertagi, 53-bet) Qanday so'ziga qo'shib, noaniq belgini ifodalaydi. Ko'pincha bu xildagi gumon olmoshi belgini ifodalovchi so'zlar oldida keladi. ... qandaydir jiddiy bir gapni qizishib muhokama qilishardi.(S. Ahmad. Qorako'z majnun, 74-bet.)

Qayer, qayoq so'zlariga qo'shib, o'ringa nisbatan noaniq belgini ko'rsatadi. Buning uchun bu so'zlar o'rin kelishik qo'shimchasidan birini qabul qilgan bo'lishi shart. Toshidan toshga to'sh urib shoshar-. Qayoqdadir zilol shalola. (A.Oripov. 1-jild, 19-bet) Qachon so'zi – dir ko'plik bilan birga kelib paytga nisbatan noaniqlikni bildiradi. Qachondir biznikiga u odam kelgan edi. (X.Sultonov. Bir oqshom ertagi, 50-bet) Birov so'zi ko'pincha begona, boshqa, notanish, noaniq odam, kimdir degan ma'noni ifodalaydi. Ammo xatingiz juda qisqa bo'lsin ... birov kirib qolsa bormi. (O.Yoqubov. Adolat mazili, 145-bet) Qaysidir olmoshi ham noaniq belgiga ishora qiladi, noaniq paytni, miqdorni ham ifodalashi mumkin. Ikki oycha burun Binafshaxonning nomiga noma yuborib, uzrini aytibdi, so'ng qaysidir asrda bitilgan eski bir kitobni so'roqlabdi. Ilmiy ishiga zarur ekan (M. M. Do'st. 125-bet) Yana bir qaysidir rayon gazetasida muharir raykom byurasining a'zosi bo'lgan. (S.Ahmad. Qorako'z majnun, 32-bet)

So'zlar o'ziga xos leksik – semantik belgilariga ko'ra ma'lum guruhlarga bo'linadi, ya'ni so'zlarni turkumlarga ajratishda ularning leksik - semantik belgilari asosga olinadi.

Olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlari. I.Suyarov o'z ishida dastlab olmoshlarni mustaqil so'z turkumi sifatida ajratish prinsiplarini ishlab chiqdi. Bunda u olmoshlar grammatik xususiyatlari asosida emas, balki leksik –semantik belgilari bo'yicha bir turkumga birlashadi, degan fikrni bildiradi. Olmoshlarning bir guruhga birlashishi esa asosan leksik –semantik belgisiga ko'ra bo'ladi. 1. Ularning predmet, narsa belgi yoki miqdorni bildirmasligi balki ko'rsatishi, mavjudligiga ishora qilishi olmoshlarning boshqa so'z turkumlaridan farqlovchi umumiy belgi hisoblanadi. Bundan tashqari ular faqat yakka so'zlar o'rnidagina emas, shuningdek, so'z birikmalari, butun bir necha gapdan iborat yaxlit kontekst, matn o'rnida ham qo'llaniladi. Shu sodiq bevaga aylang ehtirom. Hatto zeb – ziynatni yulib ziyoda, Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol. Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda. Bunchalar muhtaram bo'lmasdi ayol. (A.Oripov. Tanlangan asarlar, 84-bet) Bu misolda shunday olmoshi yuqorida aytganimizdek birikma o'rnida (sodiq beva birikmasi o'rnida) kelmoqda. Jahonda zap yashashni biladigan odamlar bor,-dedi,-Nabi muzlab yotgan ko'rpa qatiga sho'ng'ib. U, bizda, o'zi... (X.Sultonov. Bir oqshom ertagi, 82- bet) Gapdagi u bizda o'zi olmoshi ham yuqoridagi gapda qandaydir javob tariqasida, ham ta'kid, kuchaytirsh ma'nosini berishiga xizmat qilmoqda.

Olmosh so'z turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan son jihatdan ozchilikni tashkil qiladi, biroq qo'llanish nuqtayi – nazaridan eng faol sanaladi. Olmoshlar ot, sifat, son ravish kabi turkumlar o'rnida kelib, ularning ham vazifasini bajaruvchi so'z turkumlaridan biri hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutqda keng qo'llanilib, xilma-xil funksional vazifalarni bajaradi. Olmoshlar, asosan, denotativ ma'noda ishlatiladi. Shu bilan birga, boshqa so'z tukumlariga nisbatan nafaol bo'lsa-da, ularni konnotativ ma'nolarini ham ifodalab kela oladi. Ular nutqining ixchamligini ta'minlash bilan birga nutqning tejamkor bo'lishiga

olib keladi. Bundan tashqari olmoshlar nutiqning xilma – xilligini shakllantiruvchi muhim lisoniy omillardan biridir. Shu jihatlariga ko'ra so'z turkumlari orasida o'z o'rniga ega bo'lib, alohida leksik –semantik xususiyatlari mavjud. Grammatikaga oid adabiyotlarning deyarli ko'pchiligida o'tgan asr adabiyotlarida ot, sifat, son kabi o'z turkumlari o'rnida qo'llanuvchi so'z sifatida olmoshlar e'tirof qilinadi.³

Ayrim adabiyotlarda olmoshlar ravish so'z turkumiga oid so'zlar o'rnida ham qo'llana olishi aytiladi.⁴ Ayrimlarida esa olmoshlarning ravish o'rnida qo'llanilishi yoki qo'llanmasligi aniq ko'rsatilmay olmoshlar ot, sifat, son kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanuvchi so'zlar sifatida ta'riflanadi. Lekin bularda ham ravish o'rnida qo'llanuvchi qachon, qayerda kabi so'zlar olmoshlar qatoriga kiritiladi.⁵

Keyingi yillar adabiyotlarda, maqola va monografiyalarda olmoshlarning leksik-semantik, grammatik xususiyatlari, imkoniyatlari kengroq ochilib, turli atamalar bilan ham (“ichi bosh so'zlar, ishora so'zlar”) atalib kelinadi. Masalan, R.Sayfullayev, B.Mingliyev va boshqalar tomonidan chiqqan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” kitobida quyidagi fikrlar keltirilgan. “Ma'lumki, so'zlar ma'naviy belgisiga ko'ra uch turga bo'linadi. a) Mustaqil ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid); b) Bo'sh-ishora ma'noli so'z (olmosh); c) Yordamchi ma'noli so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar).

“Ishoraviylik” ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib “ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'z” sifatida o'ta tor tushunilgan. Vaholangki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlid, undov, gap va hatto matnni olmashtira olish, ularga ishora etish xususiyatlari hisobga olinmagan”⁶. Darslikda yuqoridagi fikrlar isbotlanib, men, sen, u, biz, siz, ular shaxsga kim, nima, bu, ana, mana bu kabi olmoshlar

³ Hozirgi zamон ўзбек тили – Тошкент, 1957, 365-бет Мирзаев М, Усмонов С, Расулов И. Ўзбек тили – Тошкент, 1962, 122-бет.

⁴ Суяров.И. Ҳозирги замон ўзбек тилига олмошлар. Фил. фан. ном. дисс. – Самарқанд, 1965, 10-бет.

⁵ Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тили. –Тошкент: 1965, 46-43-бетлар.

⁶ Сайфуллаева Р., Минглиев Б ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: 2009, 259-260-бетлар.

predmetga, qanday, shunday, bunday kabilar belgiga, buncha, shuncha, qancha kabilar miqdorga, qachon paytga, qayer o'ringa, shunday bo'lmoq, qanday qilmoq kabi harakat-holatga ishora qilish aytiladi. Hech bir so'zni almashtirmasdan kelishi ham misollar yordamida berilgan. Kim mehnat qilsa, u rohat topadi. Men kecha keldim. Sen buni bilasan. Nima qilsam ham men o'zim bilaman. Hamma mehmonlar biznikida. Barcha mushkulotlar oson bo'ldi kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshi hech bir so'zni almashtirmagan. Fikrlardan ko'rinadiki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni almashtirib, uning o'rnida kelavermaydi. Bu holat ham olmoshlarning o'ziga xos leksik-semantik xususiyatlarini ifodalaydi. Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish kerakki, arab tilshunosligida olmosh alohida so'z turkumida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida "yashirin ma'noli so'z", zamirlar sifatida alohida guruhlarga ajratilgan. Masalan, kitob, daftar-aniq ma'noli ot bo'lsa, men, sen, kim yashirin ma'noli ot(zamir ot) dir. Yoki oq, qizil, chiroyli ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, bunday, shunday, kabilar "zamir sifat"dir.

Olmoshlarning leksik – semantik xususiyatlaridan biri shuki, ular shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy ma'noni anglatadi. Olmoshni bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'zlar kabi morfologik jihatdan o'zgaradi. Olmoshlarda umumiylik juda kuchli darajada bo'ladi. Masalan, bu so'zi kontekstdan tashqaridan olinganda uning ma'nosi juda umumiy, mavhum xarakterga ega bo'ladi. Bu daraxt bo'lishi ham mumkin, bu-odam bo'lishi ham mumkun, bu hayvon bo'lishi ham mumkun va hokazo. Shuning uchun umumlashtirish, umumiylik haqida gapirganda olmoshlardan misol keltirishi bejiz emas. Ularning ma'nosi esa gapda o'zi aloqador bo'lgan so'z bilan birgalikda aniqlanadi. Tabiat buyuk bir shoir ekan. Yomg'irni yerga ranglar kamalagida solib otadi... yerga oshiqayotgan har uchqun qorga gul solib ulgiradi. U chindan ham buyuk! Shogid bo'lsam edi, unga... (O.Matjon. Iymon yog'dusi, 128-bet) Hayriyat qonim yurtimizga to'kiladigan bo'ldi, - dedi u allaqanday quvonch bilan. (S.Ahmad. Qorako'z majnun, 75-bet)

Birinchi gapda u tabiat so'zi o'rnida, ikkinchi gapda shaxs ma'nosini ifodalamoqda. Bu ma'no esa gap ichida anglashilmoqda. Olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlaridan biri ular ot, sifat, son kabilar o'rnida "shunchaki qo'shimchasi" so'zlar emasligidadir. Chunki biror ma'noni ifodalovchi so'z bo'lgani holda, shu ma'noning aynan o'zini ifodalash uchun tilda yana qandaydir boshqa so'zlarning bo'lishiga ehtiyoj bo'lmaydi. Olmoshlarning qo'llanishi esa bir tomondan, ularning tilda turmush talabi bilan kelib chiqqan so'zlar ekanini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, tilda muhim o'rni, o'ziga xos xususiyati borligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham olmoshlarning kelib chiqishi qadimiy sanaladi.

Hatto bizning tilimizda yaratilgan qadimiy yodgorliklardan sanalmish Urxun-Enasoy yodgorliklarida ham olmoshlar uchraydi.

Bän-ben, män-men-min, sän-sen-sin, ol, ani, biz, siz, sizlär, olar, öz, kentü-kendü, bu, ol, oibu, sul, osu, osul, muni-munī, bunī – buni, kim, nä, nenü, nelüq, neëük, naga, nädä, qatli, qani, qanta, qaçon, qayn, qamug', qamag', tari.⁷

Olmoshlarda umumiylik nihoyat darajada kuchliligini shundan ko'rsak bo'ladiki, ot, sifat, son, ravish turkumlariga oid so'zlar o'zbek tilida bir necha ming miqdorni tashkil etadi. Shu so'zlar o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar esa butun yasama shakllari bilan yuzdan oshmaydi. Shunday bo'lsa ham turli-tuman ma'nolarni ixcham va oson yo'l bilan (oz so'z yordamida) ifodalash imkonini beruvchi vositalar hisoblanadi. Agar olmoshlar bo'lmaganda milliard miqdordan qancha miqdori olinganligini so'zlash uchun har bir miqdorni milliardgacha alohida sanalishi (so'ralishi) kerak bo'lar edi – bittami, ikkitami, uchtami yoki bitta oldingmi va hokazo.

Predmetlarning rangi juda ko'p xildir. Bu ranglar o'zbek tilida ayrim so'z yoki so'z birikmalari orqali ifodalanadi. Biror predmetning mazmun ranglardan qaysi biriga ega ekanligini so'rash uchun qanday yoki qanaqa olmoshlarini qo'llash kifoya: rangi qanday? – oq. Boshqa so'roq olmoshlar haqida ham shunday gaplarni aytish kifoya. Bu aytilganlardan, agar o'zbek tilida so'roq olmoshlari

⁷ Раҳмонов Н., Содиков Қ. Ўзбек тили тарихи.– Тошкент, 2009, 128-129-бетлар.

bo'lmasa, ular ifodalaydigan ma'no faqat yuqorida ko'rsatilgandek ifodalanar edi, degan xulosa chiqmaydi. Bunday bo'lishi mumkin ham emas. Agar o'zbek tilidagi hozirgi so'roq olmoshlari bo'lmasa, ular ifodalaydigan ma'noni ifodalash uchun boshqa so'zlar yuzaga kelgan bo'lar edi. (Lekin bu ham qanday so'z bo'lishidan qat'iy nazar, baribir olmosh bo'lar edi). Chunki tilda biror ma'noni ifodalashga ehtiyoj bo'lar ekan, shu ma'noni ifodalovchi so'z yoki biror shakl albatta, yuzaga chiqadi. Shu aytilganlarning o'ziyoq ko'rsatadiki, olmoshlar tilda shunchaki, ot, sifat, son kabi turkumlarga oid so'zlar o'rnida qo'llash uchun ifodalanuvchi so'zlar emas, balki, ko'rib o'tganimizdek, aloqa vositasida juda muhim o'rin o'ynaydigan so'zlar hisoblanadi. Olmoshlar boshqa so'z turkumlaridagi so'zlarga nisbatan juda keng qo'llanilishi bilan harakterlanadi. Ular ma'nosi va o'ziga xos xususiyatlari bilan ot, sifat, son kabi so'z turkumlaridan butunlay farq qiladi va o'ziga xos turkumni tashkil etadi. Nimani ko'rsatishiga qarab olmoshlarni quyidagi uch asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumlashgan predmetni ko'rsatuvchi olmoshlar;
2. Umumlashgan belgini ko'rsatuvchi olmoshlar;
3. Umumlashgan miqdorni ko'rsatuvchi olmoshlar.

Umumlashgan predmetni ko'rsatuvchi olmoshlar guruhiga men, sen, u, biz, siz, kim, nima, hech kim, allakim, allanimadir kabilar kiradi. Umumlashgan belgini ko'rsatuvchi olmoshlarni o'z ichida ikki turga bo'lish mumkin:

1. Predmetning umumlashgan belgisini ko'rsatuvchi olmoshlar (olmosh, sifat): Bu, shu, qanday, qaysi, ba'zi, allaqanday, hech qaysi kabilar;

2. Harakatning umumlashgan belgisini ko'rsatuvchi olmoshlar; qachon, qayoqda kabilar. Qay olmoshi esa predmetning belgisi haqida so'roqni ifodalagan hollarda, har vaqt predmetning belgisini qaysi jihatdan so'ralayotgani aniq ifodalaydi, yangi predmetning tusi yoki hajmi haqida so'ralayotgani aniq ifodalanadi va doimo shu ma'noni ifodalovchi so'z bilan birga keladi.

3. Umumlashgan miqdorni ko'rsatuvchi olmoshlar qancha, necha, shuncha olmoshlar kiradi. Olmoshlarning bir guruhga birlashishi leksik-semantik belgiga

asosan bo'lishini ya'ni, olmoshlarni so'z turkumi sifatida ajlarishga leksik – semantik belgi asosga olinishini ko'rdik. Shu bilan birga olmoshlar o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ham ega. Aslida ularni boshqa barcha so'z turkumlaridan farqlarini va ularni alohida bir turkumga oid so'z ekanligini ko'rsatuvchi, bu turkumga oid so'zlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan grammatik belgi yo'q. Lekin olmoshlarning ayrim turlari yoki shu turdagi bir yoki ba'zi olmoshlar o'zlariga xos ayrim grammatik xususiyatlarga ega. Bu grammatik xususiyatlar shu olmoshlarning semantik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, ot, turkumiga xos deyarli barcha so'zlar egalik qo'shimchalarini qabul qilgani holda, ot o'rnida keluvchi men, sen, biz, siz olmoshlari egalik qo'shimchalarini qabul qilmaydi. Ot turkumidagi deyarli barcha so'zlar ko'plikni qabul qilgan holda men, hech kim, hech nima olmoshlari va qo'shimchani qabul qilmaydi. Tushum va qaratqich kishiliklari otlarda tushub qolishi, belgisiz qo'llanilishi mumkun. Ammo olmoshlarda tushib qolmaydi, daraxt bargi, mening uyim, tush ko'rdim, uni ko'rdim va h.k.

Kishilik olmoshlari ot o'rnida kelib, otning so'rog'iga javob bo'ladi. Shu sababli uning grammatik xususiyatlari ko'p jihatdan otlarning grammatik xususiyatlariga o'xshaydi. Ular otlar kabi turlanadi. Turlanganda ularning tarkibida fonetik o'zgarish yuz beradi, men+ ni = meni, sen+ning=sening tovush tushushi yuz beradi. U kishilik olmoshiga jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kishiliklari qo'shilganda bitta "n" tovushi orttiriladi, unga, unda, undan.

Kishilik olmoshlari otlar kabi gapning bosh bo'laklari, ikkinchi darajali bo'laklari vazifasida keladi. Men dunyoga kelgan kundayoq vatanim deb seni, uyg'ondim. (H.Olimjon. 217-bet) Xudo bergan bu jannat bag'riga to'yib-to'yib qolmagan gumroh mendirman. (T.Sodiqova. Yoningdagi baxt, 20-bet) Menda qanday gunoh bo'lsin. Bir bezavon jonivorman (S.Ahmad. Qorako'z majnun, 65-bet) Hammayoqda shodiyona, o'yin-kulgu, faqat mening ichimga chiroq yoqsa, yorimaydi. (U.Nazarov. O'zgalar uchun, 13-bet)

Ko'rsatish olmoshlaridan bu, shu, u, o'sha, ushbu, ana bu, mana bu olmoshlari otlarga xos ko'plik, egalik, kishilik qo'shimchalarini qabul qiladi. Bular, shularga, o'shalarni, buning, uni, bulardan, shunda kabi. Bu olmoshlarga jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kishilik qo'shimchalarini qabul qilganda ham shu kishilik qo'shimchalaridan oldin bir "n" tovushi orttiriladi. Bunga, bunda, bundan, shunga.⁸

"Bu, shu, u, o'sha olmoshlari sifat va ravish yasovchi –dek cha kabi affikslar bilan ham qo'llanadi. Bunday hollarda ham qo'llanuvchi affiks oldidan bir "n" orttiriladi: bunday, shunday, unday, uncha, shuncha, o'shancha kabi.

Ko'rsatish olmoshlarining asosiy sintaktik vazifasi xuddi sifatlar kabi aniqlovchi va kesim vazifasida kelishidir. Masalan, quyidagi gaplarda aniqlovchi vazifasida keladi: O'sha suvratni qora kunlarimdan xotira deb saqlayman. (S.Ahmad. Qorako'z majnun, 87-bet) O'shanday shuhbatlarning birida gap aylanib Fuzuliyning bitta g'azaliga borib qadaldi. (S.Ahmad. Qorako'z majnun, 13-bet) O'shalarning roziligi bizning omonligimizdir! (T.Sodiqova. Yoningdagi baxt, 14-bet) O'shalarning davrasida ko'proq bo'ling. (P.Qodirov) Kesim vazifasida keladi: ish bunaqa bo'pdi! (U.Nazarov. Girdob, 239-bet) Hol vazifasida keladi: O'shanda yapon portlarida geysalar matroslarni yo'ldan uradi, deganding (S.Ahmad. Qorako'z majnun 78-bet) Shovullamang, bog'lar, hey. Bunda bir qiz uxlaydi. (M.Yusuf) Otlashib ega, to'ldiruvchi bo'lib keladi. Ul og'aga, bul ukaga do'nibdi.

Hamma shunga ko'nibdi (O.Matjon. Iymon yog'dusi, 200-bet) Axir bunaqalar qanchadan-qancha! O'zlari aybdor (U.Nazarov. Chayon yili, 75-bet) Sirojni bundan hali xabari yo'q, Asqar qashqa bo'lib yuribti. (U.Nazarov. O'zgalar uchun, 224-bet) Ming yillik yozg'utdan qutulolmaysan. Anavilar bor-da, o'shalar deysan. (O.Matjon. Iymon yog'dusi, 223-bet)

Ma'nosi bir xil bo'lgan so'roq olmoshlari ham o'ziga xos ba'zi tomonlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bunday farqli xususiyatlar olmoshlarni bir-birlariga qiyoslash orqali ochib beriladi. Kim olmoshi faqat shaxs haqidagi so'zlarni

⁸ Суяров И. Ҳозирги замон ўзбек тилида олмошлар. Фил.фан.ном.дисс. – Самарқанд, 1965, 140 –бет.

bildiradi, faqat shaxsga qarata qo'llanadi. Lekin faqat kishilarning kimligini bilish uchun emas, kishilarning ismi haqidagi so'roqni, do'stlik yoki boshqa munosabatlar haqidagi so'roqni bildiradi. U kim? Kelingiz. U kim? Do'stim. Hozirgi zamon o'zbek tilida narsa-predmetlar haqida so'roqni ifodalovchi asosiy so'z nima olmoshidir. Ba'zan nima olmoshi qanday so'rog' o'rniga belgini bildirish uchun ham qo'llanilishi mumkun. Nima qilay? Qayoqqa boshimni uray? Nega olmoshi sabab haqidagi so'roqni ifodalaydi. Nechuk olmoshining aynan nega olmoshi ifodalagan ma'noda qo'llanilishi hozirgi zamon adabiy tilida ham uchraydi. Bu olmosh sabab haqida so'roqni bildirishi bilan birga o'ziga xos boshqa xususiyati bilan nega olmoshidan farqlanadi. U sabab haqidagi so'roqni bildirishi bilan birga yuz bergan harakat-holat so'zlovchi bilan maqul bo'lgan, lekin bajarilishi kutilmagan harakat ekanligini ham ifodalaydi, ya'ni unda so'zlovchining ajablanishi nega olmoshidagiga nisbatan ortiq darajada ifodalaydi. Va ko'proq bu olmosh poetik uslubda uchraydi. Bu nechuk manzildir, tog'lar soqchidir. (O.Matjon. Iymon yog'dusi, 13-bet) G'aflat uyqusida erdim, Ayt nechuk fahm aylading (E.Vohidov. Saylanma. I bob, 129-bet) Nechuk olmoshining nechun shakli ham mavjud. Nechuk bahor seni rom etgan. Qayda eding bahor kelguncha? (A.Oripov. I jild, 14-bet) Bu olmosh sabab ma'nosini so'rashdan tashqari bog'lovchi vazifasida ham keladi. Dunyo go'zal, nechun kim unda, sening bilan biz bormiz doim (H.Olimjon. I tom, 207-bet)

Necha olmoshi son-miqdor haqida so'roqni bildiradi. Necha pilga olgansiz? – so'raydi, qora sho'x bola (Oybek. Qutluq qon) Shoshma, necha pulsan, bilinib qolar (O.Matjon. Iymon yog'dusi 23-bet) Hozirgi zamon o'zbek tilida son-miqdor haqida so'roqni ifodalash uchun nechta olmoshi ham qo'llanadi. Nechta o'g'ri bor? (A.Qodiriy. O'tgan kunlar) Nechta olmoshi o'ziga xos ayrim xususiyati bilan necha olmoshidan farqlanadi. Nechta olmoshi umuman son-miqdor haqidagi so'roqni emas, predmetning donasi haqidagi so'roqni bildirish uchungina qo'llanadi. Predmetning soni haqida so'roqni ifodalashda nechta olmoshining qo'llanilishi uchun shu predmet aniq va donalab sanash mumkun bo'lgan (dona-

dona holiday) predmet bo'lishi kerak. Nechta odam? Nechta daraxt? deyish mumkun, lekin nechta yil? nechta xil deyilmaydi. Nechta olmoshi esa aniq bo'lmagan predmetning miqdori (soni) haqida so'roqni ifodalash uchun ham qo'llanaveradi: Necha kishi? Necha yil va h.k. Bu yoqda necha yil qoldi? Beshmi? O'nmi? (X.Sultonov. Bir oqshom ertagi, 70 -bet)

Qanday olmoshi belgi haqidagi so'roqni bildiradi. Faqat predmetning belgisi haqida emas, shuningdek harakat-holatning belgisi haqida so'roqni ham bildiradi. Bu qanday matlabdir, bu nechuk matlab. (O.Matjon. Iymon yog'disi 13-bet) Qanaqa. Bu olmosh ham qanday olmoshi kabi predmetning belgisi haqida so'roqni ifodalaydi. Bu qanaqa dard o'zi soqovdek lalu ma'lum yotsa-yu, xoturalar azobidan qutilmasa-ya!... (N.Qilichev. Chig'irig, 13-bet) Bunisi qanaqa bo'larkin, poygadami qanaqa kelarkin? ... (U.Nazarov. Chayon yili, 235-bet) Qanaqa olmoshi harakatning belgisi haqida so'roqni bildiradi. O'g'ling tilla yigit-ku. O'zing qanaqa eding? Esingdan chiqdimi, oshnam? (X.Sultonov. Bir oqshom ertagi, 50-bet) Rais bobo, sizga bir savolim bor, shu raislik qanaqa bo'ladi-a? (Sh.Xolmirzayev, 109-bet) Qalay olmoshi ko'pgina grammatikalarda unchalik uchramaydi. Bu olmosh haqida I.Suyarov dissertatsiyasida to'xtalgan bo'lib, unda qalay so'zining ma'nolari izohlangan. Qalay olmoshi belgi haqidagi so'roqni bildiradi. Lekin bu olmosh ko'pgina belgining yaxshi yoki yomonligi haqida (ijobiy va salbiy) ekanligi haqida so'roqni ifodalash uchun qo'llanadi, ya'ni qalay olmoshi bildirgan so'roq asosida durustmi, durust emasmi (ma'qulmi yoki ma'qul emasmi) degan ma'no yotadi".⁹ Masalan, biror predmetning rangi haqida (oq, ko'k, qizil va bishqa rangi haqida) so'roq ifodalanmoqchi bo'lsa qanday yoki qanaqa so'rog'i qo'llanadi. Rangi qanday? Rangi qanaqa? Agar so'zlovchi va tinglovchi shu rangni ko'rib turgani yoki shu rangni bilgani holda uning "rangining" ma'qul yoki ma'qul emasligi haqida so'roqni ifodalamoqchi bo'lsa, odatda qalay olmoshini qo'llaydi. (rangi qalay?), (durustmi, durust emasmi). Mana shu yerga Anvar akangga uy solib beramiz, Ra'no. Bu senga qalay o'xshaydi,

⁹ Суяров И. Ҳозирги замон ўзбек тилида олмошлар. Фил.фан.ном.дисс. – Самарқанд, 1965, 192 -бет

qizim? (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon) – Xo’sh, siz qalaysiz? – Xo’sh,-deb so’radi vrach kravat chetiga omonatgina o’tirib. Ahvolingiz qalay? Durustmi? (X.Sultonov, Bir oqshom ertagi, 55-bet). Demak, bunday hollarda nutq qaratilgan shaxsning belgiga munosabati so’raladi. Yuqoridagi keyingi misolda shaxsning holati haqidagi so’roqni ifodalash uchun ham qo’llangan. Oddiy so’zlashuv nutqida ham ko’p qo’llanadi. Ishlaring qalay? Sog’liging qalay? Qalay olmoshi so’roq bilan birga harakat va holatdan so’zlovchining mamnunligi ma’nosini bildirgan hollarda bu so’roq tinglovchi yoki o’zganing holatiga nisbatan bo’lsa, tinglovchi yoki o’zgaga nisbatan kinoya ham anglashiladi. **Endi qalaysan?**

Qay olmoshi o’rin-joy haqida so’roq ifodalshda ishtirok etadi. Qayda? Qayga? Qaydan shakllari keng ishlatiladi. Qayda, qayga, qaydan shakllari asosan she’riyatda ko’proq uchraydi. Qaysi olmoshi ma’lum bir guruhdagi narsalar ichidan ajratib ko’rsatuvchi belgi haqidagi so’roqni bildiradi. Akamullo tuzuk. O’g’illari kelib, dimoqlari chog’, og’zi **quloqda, yuribdilar.** – Qaysi o’g’illari? – ajablandi haligi mo’ysafid, – U kishining hech kimi yo’q edi. (O.Muxtor. Yillar shamoli, 97-bet) Qani olmoshi shaxs yoki narsa predmetning mavjudlik o’rni haqida so’roqni ifodalaydi. Masalan, kitob qani? Lekin ayrim hollarda bu so’z yuklama o’rnida ham kelishi mumkun. Bunday hollarda u so’roq ma’nosini ifodalaydi? **Qani, qo’lingizni bering usta Binoqul.** (X.Sultanov. Bir oqshom ertagi, 159-bet) Qani endi xudoning rahmi kelib... (U.Nazarov. Chayon yili, 13-bet) Qani olmoshi qayerda so’roq olmoshiga sinonim bo’ladi. Faqat shaxs yoki narsaning mavjudligini o’rni haqida so’roqni ifodalash bilan birga so’zlovchining shu shaxs yoki narsa predmetni bevosita ko’rmoqchi bo’lganligini ham anglatadi, ya’ni so’zlovchi so’rayotgan shaxs va narsani ko’rmoqchi bo’lsa deyarli hamma vaqt qayda, qayerda, qayoqda olmoshlari qo’llanadi. Masalan: maktab qani (maktabni ko’rmoqchi); maktab qayerda (maktabning joyini so’ramoqda) va h.k. Qancha olmoshi predmetning son-miqdori haqida so’roqni bildiradi. Bunda qancha muxlislaring bor. Hali seni qilarlar tahrir E.Vohidov. I tom, 42-bet) Qancha olmoshining necha olmoshidan farqi unda predmetni donalash xususiyati yo’q.

Masalan, majlisga necha odam keldi? deganda majlisga kelganlarning soni so'raladi. Majlisga qancha odam keldi? Deganda, asosan, kelgan odamlarning yoki ozligi so'raladi. Bunda donalash deyarli bo'lmaydi. Shuning uchun bu so'roqqa javob berishda hisob so'zlar qo'llanmaydi. Faqat sanoq bildiruvchi sonning o'zi qo'llanadi.

Qancha og'ir toshlar.

Tubda unga cho'kkan tiz.

(A.Oripov, 40-bet)

Hali qancha tunlarni yana,

O'tkazishim kerak uyqusiz.

(A.Oripov, 428-bet)

Qancha olmoshi belgi haqida so'roqni bildiruvchi olmoshlar qatoriga kiradi. Bu olmosh ish-harakatning bajarilish vaqti haqida so'roqni ifodalaydi. Uy opsanmi, Saidjon, to'y qachon endi? Ayt, qachon ko'nglinga solding. Ishq o'tin, ey sohira. Dil o'zi bog'landimu, yo bog'lading jodu bilan? (E.Vohidov. I tom, 166-bet) So'roq olmoshlari so'roq ma'nosidan tashqari boshqa ma'nolarda ham qo'llanadi. Lekin bu ma'nolar shu olmoshlarning o'ziga xos ma'nolari emas, gapning umumiy mazmuni va ohang orqali reallashadigan ma'nolardir. So'roq olmoshlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, ular qo'shma gaplarda bosh gap bilan ergash gapni bog'lash uchun keng qo'llanadi. O'zbek tilida qani so'roq olmoshidan boshqa barcha so'roq olmoshlari ana shu vazifada qo'llana oladi. So'roq olmoshlarining nisbiy so'z vositasida qo'llanishi faqat o'zbek tilida uchraydigan hodisa bo'lmay, balki turkiy tillarning deyarli barchasiga xos xususiyatdir. Yuqorida biz faqat so'roq olmoshlarining semantik-stilistik xususiyatlari bilan tanishib chiqdik. Agar boshqa olmoshlarni ham shu tarzda tahlil qilsak, ularning o'ziga xos stilistik, semantik xususiyatga ega ekanligi, qo'llanish ko'lami kengligi, universalligi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

II bob

O'zbek tili stilistikasining nazariy masalalariga bag'ishlangan kuzatishlarda funksional uslublar masalasi ham tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan.¹⁰ Nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki ko'pchilik tilshunosliklarda ham akademik V.Vinogradovning tilining uch muhim vazifasi – aloqa, xabar, ta'sir etish xususiyatlariga asoslanadi.¹¹ Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida, - deb yozadi S.Karimov,- tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, funksional badiylardan foydalanganlarida, avvalo o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va ishlatadilar. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos, uslubiy chegaralashlarini taqozo qiladi. Til elementlarining ijtimoiy muhitda tanlab ishlatilishi va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish zaruriyati stilistikada yangi sohani, funksional stilistikani vujudga keltiradi".¹²

O'zbek tili badiiy uslubida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari ikkinchi bobda o'rganishga harakat qildik.

Badiiy uslubda yozilgan asarlar aniq, bir muallifga tegishliligi va ijod mahsuli ekanligi bilan xarakterlanadi. Zero, bu uslublarda shakillanadigan matnlar asar muallifidan, janr talabidan kelib chiqib maxsus tayyorgarlik ko'rishni, har bir voqea – hodisani, tasvir oy'ektini badiiy estetik tafakkur prizmasidan o'tkazishni, binobarin, ushbu maqsadga xizmat qiladigan har bir elementni tanlab ishlatishni, ularga muayyan ta'sir ko'rsatish vazifasini yuklashni talab etadi. Til birliklaridan shu tarzda foydalanish bevosita olmoshlarga bo'lgan munosabatda ham anglashilib turadi.

Buning ustiga asar muallifining til materiallariga ijodiy yondashuvi, voqelikni keng ko'lamda, siqiq shaklda ifodalashga bo'lgan ehtiyoj til birliklari

¹⁰ Kўнгуров Р., Каримов С., Курбонов Т. Ўзбек тилининг функционал ситилялари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1984; 84-бет. Ўринбоев Б. Функционал услуб ва унинг моҳияти. –Т.: Фан 1992, 32-бетю

¹¹ Кўнгуров Р., Каримов С., Курбонов Т. Юқоридаги асар, 12-16 бетлар.

¹² Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби.–Самарқанд: Зарафшон, 1992, 7-бет.

zimmasiga allohida vazifalarni yuklaydi. Q.Samadovning quyidagi so'zlari fikrimiz isbotidir.

Badiiy uslub har bir ijodkorning mustaqilligi belgisidir. Bu belgi zamirida san'atkorning voqelikka munosabati, estetik prinsiplarni ijodiy nazariyasi mujassamlashadi. Til vositalari ana shu o'ziga xoslikni namoyon etuvchi muhim omil hisoblanadi. Bunda til vositalari faqat tasvirlovchi unsurlar bo'lib qolmasdan, balki voqelikka munosabat ko'lami ko'rsatuvchi badiiy tadqiq etilayotgan voqeahodisalarni bosh g'oya atrofiga uyushtirib asarga yaxlitlik baxsh etuvchi omil ham hisoblanadi. Demak, badiiy asarda til faqat tashqi belgi-shakl bo'lib qolmasdan mazmunga ham dahldor, aniqrog'i uni uyushtiruvchi va yorituvchi vosita hisoblanadi.¹³

Badiiy asarda so'z qo'llash ijodning janr xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, boshqa xoslangan uslublardagi kabi badiiy uslubda so'z qo'llash ham lisoniy va nolisoniy qonuniyatning uzviy bog'liqligini taqozo etadi. Ayni chog'da mana shu holatlarning zamirida sanatkorning ijodiy pozitsiyasi mujassamlashadi.

Badiiy tasvir hayotning hamma sohasini qamraydi. Shuning uchun bunda umumiy leksika ham, chegaralangan so'zlar ham keng ravishda qo'llaniladi. Bu jihatdan badiiy adabiyoti tili ro'znoma tiliga o'xshab ketadi. Chunki ro'znomada ham hayotning nihoyatda keng ko'lami ifoda qilinganidan turli sohaga oid so'zlar qo'llanadi. Ammo ro'znoma materiali asos etibori bilan publisistik uslubga mansub bo'lsa, badiiy adabiyot tili badiiy uslubga xosdir. Badiiy uslub esa timsolliylilik zuhr etadi. To'g'ri ro'znomadan ham timsolilik ishlatiladi. Ammo badiiy ijoddagi timsol muhokamaga undaydi, voqeylikni yanada chuqurroq, yanada kengroq bilib olishga imkon yaratadi.

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, unda eskirgan so'zlar ham, lahja so'zlari ham, atamalar ham yangi so'zlar ham keng ravishda qo'llanadi. Chunki hayotning keng lavhasini yuzaga keltirish

¹³ Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти. – Гулистон, 1992, 30- бет.

voqiylikning butun qatlamini to'la yoritish shuni taqozo etadi. Bu jihatdan Oybekning "Navoiy", O.Yoqubovning "Ulug'bek hazinasi" kabi romanlarini eslash kifoya. Ayniqsa Oybek besh asrlik masofani qalb va qalam, tafakkur va shuur yo'li bilan bosib o'tib, hozir eskirgan o'sha vaqtda faol qo'llangan so'zlarni tasvirga singdirib, ularga ruh baxsh etadi va hayotning jonli manzarasini kitobxonga taqdim qiladi. Shu tariqa adib o'tmishini zamonamiz xizmatiga yo'lladi. Shuning uchun badiiy asar tilini o'rganish tilning taraqqiyot darajasini ham o'rganib borishidir. Bundan tashqari, badiiy asar tili shunday bir tilki uning doirasida tilning xalqona soddaligi, oddiy tushunarligi, ta'sirchanligi va ijodkorning tafakkur qudrati mavjud. Shuning uchun badiiy matnlarni lingvopoetik jihatdan o'rganishda uning morfologik xususiyatlariga ham etibor berish zarur.

Ko'pgina ishlarda lisoniy tahlil jarayonida morfologik birligi bilan ishlatilishi ham aytib o'tilgan. Masalan; M.Yo'ldoshev "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" asarida bu haqida quyidagi fikrlarni keltiradi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday ma'no qirralariga ega bo'lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida nima maqsad bilan qo'llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Odatda, erkalash-suyush, hurmat-e'zozlash, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Masalan: qizaloq, toychoq, o'rgilay, girgitton bo'lay, bolaginam, do'mbog'im, arslonim, pahlavonim, shakarim, shirinim kabi salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sirasiga jirkanch, manmanlik, mensimaslik, kibrilik, masxara, nafrat, g'azab, kinoya, kesatiq kabi sub'ektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bunday ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi.¹⁴

Tahlil jarayonida matnda qo'llanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko'rinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik o'zgachiliklar haqida so'z yuritiladi. Masalan, eng ko'p ishlatiladigan

¹⁴ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. Тошкент: Фан, 2006, 33-бет.

badiiy tasvir vositalaridan biri takroridir. Bu holat olmoshlarda ham yuz beradi. Olmoshlar takrorlanib ta'kid, kuchaytirish, ko'plik ma'nolarini berish bilan birga yozuvchining o'ziga xos uslubini yaratishga yoki qahramonning individual nutqini hosil qilishda ishtirok etadi. Masalan, Dehqonqul, shul-shul. (T.Murod. Otamdan qolgan dalalar) Bundan tashqari olmoshlar inson xulq atvorini ikki xil jihat (ijobiy va salbiy)dan harakterlash uchun ham ishlatilib kelinmoqda. Olmoshlarning bunday xususiyati esa alohida uslubiy ahamiyatga molikdir.

Qisqa bayon etilgan mazkur dalildan maqsad olmoshlarning ham shunday xususiyatini ifodalash uchun hizmat qilib kelayotganligini uqtirishdan iborat. Haqiqatdan, olmosh bo'yicha olib borilgan ishlar. Masalan, kishilik, qisman o'zlik va ko'rsatish turlari insonni harakterlash uchun ishlatiladi. Olmoshlarning boshqa turlari esa o'zgacha uslubiy xususiyatlarni ro'yobga chiqarish uchun hizmat qiladi.

Bayon etilganlar asosida ko'rsatilgan olmoshlarning uslubiy xususiyatlarini ikki xil nuqtai nazardan ko'rib chiqish lozimligi ayon bo'ldi.

- 1) Ijobiy baho ottenkasi;
- 2) Salbiy baho ottenkasi.

Bunday xususiyatlar matnlar asosan badiiy matnlarda namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tamiz.

Ijobiy baho ottenkasi. O'zbek tilida ijobiy so'zi "Ma'qul, ma'qul" deb topilganligini ifodalovchi, ma'qullovchi, yo'qlovchi, maqtovchi ma'nosini ifodalaydi.¹⁵

U narsa – predmetlarning ham, shaxslarning ham shunday xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Dastlab ta'kidlash lozimki, bunday ijobiy xususiyat olmoshlarning quyidagi semalarida o'z ifodasini topgan.

I "hurmat" semasi. Kishining qadr qimmatiga ega ekanligini, e'zozga, ehtiromga loyiqqligini ifodalash maqsadida "siz" olimoshidan foydalanib kelinmoqda. Bunday xususiyat ko'pincha poetik uslubda o'z ifodasini topmoqda. Quyidagi misollar fikrimizni tasdiqlay oladi.

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т, I.1981, 315 –бет.

Quloq soling menga, yaxshi qiz biroz, dilimni ochmoqchi bo'layapman sizga. (A.Oripov) "Hurmat" semasining ro'yobga chiqarilishida o'zlik olmoshidan ham foydalanilayotganligi diqqatga sazovor dalillardan biridir. Chinki mazkur olmosh ham asliy ma'nosida nomunativlik vazifasini bajarishi bilan bir qatorda uslubiy ahamiyat kasb etadi. Asosan, og'zaki nutqda qo'llanadigan birlik va ko'plik shakllaridagi o'z so'zi ana shunday xususiyatga egadir. Ular ko'pincha shaxslarga nisbatan shunday ma'noda qo'llab kelinmoqda. Misollarga murojat qilamiz.

a) Movunlarimiz ancha chaqqon odamlar, lekin o'zingizning yo'qligingiz bo'lak-da. (U.Nazarov)

Tengsiz bu holatga to'ymasdan sira, yaratganning o'zi tashlardi nigoh (A.Oripov)

b) Aybga buyurmaysiz, o'zlarini qayerdan so'raymiz? Biz Toshkentdan, ota (U.Nazarov) Ayniqsa, poetik nutqda o'zi so'zi majoziy qo'llanib, narsa-predmetlar (ko'pincha mavhum)ni ifodalovchi so'zlarga nisbatan ham qayd etilgan vazifada ishlatiladi.

Zo'r qudrat emasmi hayot o'zi ham,

Yashil novdada ham uning kuchi bor. (A.Oripov).

"Mana so'zi" yakka hoida ham ko'rsatish olmoshlari vazifasini bajarib keladi. Ayni shunday olmoshlar "hurmat" ma'nosini ifodalash maqsadida ham ishlatilayotir. Biroq bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, faqat ko'plik shakildagida shunday ma'noni ifodalay oladi. Fikrimizni quyidagi misollar bilan tasdiqlaymiz. Kecha kelgan mehmonni ko'rmoqchiydim. U ketib qoldimi? Manalar o'sha mehmon.

2. "Kamtarlik" semasi. Maqtanishni o'zidan yiroq tutadigan, manmanlikka berilmaydigan, mag'rurlanmaydigan kishilarning xislatlarini reallashtirishda ot va sifat turkumiga doir so'zlardan keng foydalanishi bilan bir qatorda mazkur ma'noni ro'yobga chiqarishda olmoshlarning ham "kamtarona" hissasi borligini

ta'kidlash lozim. Chunki, ayni shunday ma'no, asosan, men va biz olmoshlarining o'zaro botiniy munosabatida voqelanadi.

Men olmoshi so'zlovchi shaxsning o'zini bildiradi, so'zlovchi shaxsni ko'rsatadi. Nutq jarayonida ayni shu ma'noni ifodalash maqsadida biz olmoshidan ham foydalanayotganligi aniq dalildir. Uslubiy ahamiyatga molik shu tarzda qo'llanish, ko'pincha, yozma nutqqa xos ekanligini ta'kidlash lozim. So'zlovchi kimsa tomonidan qo'llanilgan mazkur olmosh birinchidan, uning nutqini individuallashtirilishiga olib keladi. Muborak bo'lsin, Maqsun aka. To'y bo'lsa, mana biz bel bog'labhizmat qilamiz. Nima kamchiliklar bor, ayting! (N.Do'st) – O'lay agar, sizdan ko'nglim to'q, meni urishmaysiz, - dedi Kamol. – Bizni kampirning yuraklari juda ham tor. (O.Muhtor) Hamma artislar telpak kiygan, biz do'ppida. (M.Do'st) Misollardan biz olmoshining yakka shaxs ma'nosidagi men olmoshi bilan almashtirib ishlatilganligi nutqning og'zaki uslubga oid ekanligini ko'rsatib turibdi. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, mazkur misollarda “hurmat” ma'nosi ham ifodasini topgan deb o'ylaymiz. Mana bu misolda esa biz olmoshining faqat “kamtarlik” ma'nosida qo'llanilganligini ta'kidlaymiz:

Endi, bizning bu ishlarga dahlimiz ham qolmadi, - dedi Elmonov jilmayib-bundan buyog'i ... shu yerda... jimgina ishlab yotibmiz. (M.Do'st) Biz olmoshining o'rnida qo'llanib, “kamtarlik” ma'nosini ifodalay olish xususiyati yozma nutqning publisistik uslubda yaqqol namoyon bo'lishi muhim dalildir.

Bu o'rinda mazkur uslubiy xususiyat yuqorida bayon etilganligi tufayli shu fikrni tasdiqlovchi ayrim misollar keltirish bilan cheklanamiz. Bizning ma'ruzamiz “kishilik olmoshlarining uslubiy xususiyatlari”ni o'rganishga bag'ishlangan. Nima uchundir Qobil bobo men demasdan biz deb gapirardilar va odamlarni aksar hollarda ismi bilan emas, nasabi bilan chaqirardilar.

II. “G'ururlik” semasi har qanday kishi o'zining mehnatidan, biror ishni qoyillatib bajarganligida, kimlargadir nafi tekkanligidan va boshqa ijobiy xatti-harakatlaridan o'zining qadr-qimmatini e'zozlash maqsadida “g'ururona” so'zlaridan foydalanishi turgan gap. Shunday maqsadda nutq jarayonida kishilik

olmoshlarining ayrim turlaridan ham foydalaniladiki, bu ularning o'ziga xos uslubiy qiymatini belgilash imkonini beradi. Birinchi gapda men olmoshining shunday xususiyati haqida to'xtab o'tmoqchimiz. Mazkur olmoshning qanday uslubiy xususiyatlarga ega ekanligi xususida yuqorida so'z yuritilgan edi.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, men olmoshi "g'ururlik", "mag'rurlik" semalari bilan ham o'ziga xos uslubiy ahamiyatga egadir. Quyidagi misollarga e'tibor beraylik. - Oyijon, sizga bir gap aytaymi? -dedi Jamshid miyig'ida kulguchi bilan. Tanlov zo'r o'tdi. Unda kim g'olib bo'ldi deng. Bu men ekanman. (Lahza, № 10) Kecha "Xalq ovozi" gazetasidagi bitta maqolaga ko'zim tushib qoldi. Unda **jasurlikni rosa** maqtashibdi. Bu ikkita go'dakni yong'indan qutqarib qolgan kishilar haqida ekan. Qarasamki, unda men haqimda ham yozishibdi. Rosa bu haqida sira o'ylamagan edim. Men olmoshi **g'ururlikni** ifodalash maqsadida, ayniqsa nazmda ko'p ishlatilib kelinmoqda. Fikrimizning dalili uchun faqat bitta namuna keltirish bilan cheklanamiz. Bu "Bekajon" gazetasining 2007-yilning 18-oktabr sonida e'lon qilingan Umida Toshpolatovaning "men"deb nomlangan she'ridir.

Men ko'zyo'shman, quvochdan ko'zlarda qotgan,

Men quyoshman, kun bilan chiqib, ham botgan.

Men chinorman, o'limga xandalar otgan,

Men xazonman, sevgi deb yerlarda yotgan.

Men quvonchman, yashashga umid uyg'otgan,

Men ishonchman, gumondan oldin yaralgan.

Men tilakman, yaxshilikla senga atalgan,

Men yurakman, ko'ksida ming pora bo'lgan.

Men cho'gman, borliqni yoqishga qodir,

Men o'qman, tekkanda keng dunyo tordir.

Men insonman, omadsiz, senga baxt yordir,

Men toshqalb, sevsam gar men uchun ordir.

Men gulman, mehringga zor bo'lib so'ngan,

Men qo'lman, sevgimdan faqat shu qolgan.
Men yo'lman, olislarga seni chorlagan,
Men cho'lman bepoyon, qumlikka to'lgan.
Men menman, o'sha barchasi,
Mehringdan nafas olgan, yurak parchasi.

“G'ururlik” semasining ijobiy ma'noda ifodalanishda biz olmoshning o'ziga xos o'rnini bor. Topilgan materiallardan mazkur olmosh ham ushbu semani yuzaga chiqarib, uslubiy ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ldi. Biz, shuningdek, uning – lar qo'shimchasi bilan keladigan shakli ham shu ma'noda, asosan badiiy adabiyotda shuningdek so'zlashuv nutqida ishlatilib kelyapti. Fikrimiz dalili uchun misollarga murojaat qilamiz: Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak. (Aforizm) Bu yerlarni bizlar talqon qilib tashladik. Mehnatimiz zoyi ketmadi. (Darakchi № 11, 10-bet)

Dalillardan “g'ururlik” ma'nosining ifodalanishida kishilik olmoshlarining II shaxs birligi, ya'ni sen ham ijobiy ma'no kasb etib, “gururlik” semasini yuzaga chiqarishi mumkinligi ayon bo'ldi. Bunday xususiyat asosan, poetik nutqqa xosligini alohida uqtirib o'tamiz. Chunki, poeziyada shaxslarni ham, ona-vatanni ham, tabiat go'zalliklarini ham ulug'lashga qaratilgan misralarda “g'ururlik” ma'nosi o'z ifodasini topib kelmoqda. Misollarga murojaat qilamiz.

G'ururing buyukdir O'zbekistonim!
Nomingni ming bora kuylasak arzir,
Sen uchun kurashmoq bizlarga farzdir,
Seni asrab-avaylash har kimga qarzdir. (Bekajon № 07, 13-bet)

II. Salbiy baho ottenkasi. Boshqa tillarda, o'zbek tilida ham ma'lum talablardan kelib chiqadigan nomaqbul, ijobiy bo'lmagan talablarga zid xatti-harakat, xulq-atvor va boshqa xislatlarni ifodalash maqsadida salbiy ma'no ifodalovchi so'zlardan ham foydalanib kelinayotganligini inkor etib bo'lmaydigan

lisoniy dalildir. Ayni shunday leksik-semantik ma'noning reallashuvida olmoshlarning ham o'ziga xos o'rni bor ekanligini ta'kidlash lozim. To'g'ri bu borada ot yohud sifat turkumlari doirasida salbiy ma'no ottenkasi ifodalanuvchi so'zlarga nisbatan bunday xususiyatning ro'yobga chiqishida ham kam miqdordagina olmoshlardan foydalaniladi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, shaxslarning salbiy xususiyatlarini ifodalashda ham, asosan, ijobiy xususiyatlarini voqelantiruvchi kishilik olmoshlaridan foydalanadi. Ya'ni bir xil olmoshning o'zi ikki xil funksiyani ado etadi. Men olmoshining ijobiy ma'noliligi va uning salbiy ma'noli oppozitsiyasi biz olmoshining ijobiy ma'noliligi va uning salbiy ma'no ifodalovchi oppozitsiyasi va h.k. Quyidagi salbiy ma'no ifodalovchi olmoshlar haqida so'z boradiki, bu ularning o'ziga xos uslubiy xususiyatlariga ega ekanligidan dalolat beradi.

Muhim dalil shundan iboratki, kishilik olmoshlarining ijobiy ma'noli semalari yuqorida ko'rilganiday, xilma-xil bo'lishi bilan bir qatorda, ularning salbiy ma'noli semalari biroz cheklanganligi bilan harakterlanadi. "Takabburlik" shunday semalar jumlasidandir. I. "Takabburlik" semasi. "Takabburlik" deganda "O'zini katta tutadigan, bosar-tusarini bilmay qolganlik, gerdayganlik, o'zgalarni mensimaslik, nazar-pinad qilmaslik" kabi salbiy xususiyatlar tushuniladi. Bunday xislatning ifodalanishida so'zlovchi yohud so'zlovchilarning o'zini (o'zlarini) anglatuvchi men, sen va siz, biz olmoshlarida keng foydalanilayotganligi diqqatga sazovordir. Fikrimizning tasdig'i uchun dalillarga murojaat qilamiz. Kishilik olmoshlarining I shaxs birligi bo'lmish men turi, yuqorida aytilganday, birinchi navbatda neytral ma'noda ham (men keldim, men o'quvchiman), ikkinchidan, kamina, bashar, odam, inson kabi so'zlarning ma'nolarini ifodalab kela olishi uslubiy xoslik ekanligi haqida to'xtab o'tilgan edi. Demak, mazkur olmoshning bunday ma'noviy o'ziga xoslik ijobiy xarakterga ega. Shu bilan birga, men olmoshi "takabburlik" semasini ham ro'yobga chiqarishi mumkun ekanligini quyidagi misollar bilan tasdiqlay olamiz: - Bilasanmi, men kimman? – dedi darg'azab bo'lib rais. Men katta bir idoraning boshlig'iman (Bekajon, 2007 20-

son) Bu yerlarni obod qilgankim? Men! Takror aytaman, bu men! (Mo'jiza, 2006, 15-son) Misollardan men olmoshi "takabburlik" ma'nosida ko'proq badiiy adabiyotning so'zlashuv nutqiga xos ekanligini payqash qiyin emas. Ayni shu o'rinda ta'kidlash lozimki, men olmoshining mazkur ma'noviy xususiyatlari, aniqrog'i uning shevaviy man shaklidan manman, manmanlik kabi qarindosh so'zlar hosil qilingan. Ular ham "takabburlik" ma'nosida qo'llab kelinmoqda. Manmanga zavol – kamtarga kamol. (Maqol) Ey uka, ha deb manmanlik qilaverma. (So'zlashuv nutqidan) Men olmoshi ko'plik shakl – biz beradigan ma'noviy xususiyatni ifodalab, uslubiy ahamiyat kasb etish hollari ham tez-tez uchrab turadi. Bunday xususiyat badiiy uslubning og'zaki nutqida, aniqrog'i personaj nutqida yuzaga chiqadi. Mazkur holat ayniqsa, biz olmoshi, men olmoshi o'rnida qo'llanganda yorqin namoyon bo'ladi. Misollar keltiramiz: Salim darg'azab bir holatda Po'latboyning gaplariga shunday javob qildi. Bilasizmi, Po'latboy, bu shinam uylarni biz qurganmiz! Ha, biz qurganmiz. O'sha vaqtlarda siz allaqayerlarda sanqib yurgan edingiz. (7x7, № 45) – Xudoga shukur, bizdaqa qaynona – kelin kamdan-kam. (7x7, 45-son) Biz olmoshining – lar qo'shimchasi bilan ishlatilayotganligi aniq dalildir. Pirovardida, bizlar olmoshi ham, "takabburlik" ma'nosini reallashtirish maqsadida badiiy asarlarda qo'llab kelinmoqda. Qani ko'ramiz, qachongacha otdan tushmas ekan, - dedi nihoyat bir kuni jarroh Normirza Holiqov ko'zlarini ola-kula qilib – hali bu odam bizlarning sovunimizga kir yuvmabdi chog'i. Bizlar axir yigirma yildan ortiq shu yerda ishlaymiz. (7x7, 45-son, 16-bet)

Shu bilan birga, sen olmoshining ko'plik shakli (senlar) ko'plikka murojaatda "takabburlik" ma'nolarini ifodalab, uslubiy ahamiyat kasb etadi. Senlar kim bo'ldilaring-u, menga aql o'rgatasizlar. (Mo'jiza, 2006, 15-son) Menga qara uka, senlarning zotlaring asli past edi. Shunday bo'lib qolaverasizlar. (Ko'ngil ko'chalari 2006, 7-son)

Senlar olmoshining shevaviy "sanlar" varianti ham qayd etilgan, ma'noda qo'llanilayotganligini ta'kidlab shuni aytish lozimki, bunday holatda mazkur shakl

og'zaki, aniqrog'i, shevaviy nutqqa xosligi bilan ajralib turadi. Sanlarni ko'rgani ko'zim yo'q. Yo'qollaring bu yerdan! (so'zlashuv uslubidan) Mazkur ikkala so'z shakl ham oppozitsiyali, ya'ni salbiy ma'no bilan birga, ijobiy ma'noni ham ifodalay olishi mumkun. Masalan: ey bolalarim, senlar hali yoshsanlar. Sanlar kattalarni hurmat qilishga o'rganinglar. Ta'kidlash joizki, sen olmoshiga tegishli qo'shimchalarning qo'shilishidan senday, sendagi so'z shakllar yasalgan bo'lib, ular ham nutqning uslubiy bo'lishini ta'minlaydi. Chunki mazkur so'z shakllar ko'pincha, ko'plik ma'nolari ifodalay oladi. Sendaylarning kasri menga urmasligi uchun hali ko'p ishlar qilishim kerak,- dedi Hoji polvon. (Ko'ngil ko'chalari, 8 - son) Sendaqalarning jonini Kesakpolvon kirgizib qo'yar edi. Baxtinga u o'lib qoldi, - deb o'yladi Asadbek. (T.Malik. Shaytanat)

II. "Kinoya" semasi. O'zbek tilida uslubiy ahamiyatga molik badiiy vositalardan biri "kinoya", ya'ni kesatiq, qochiriq, piching ma'nolarini ro'yobga chiqarish maqsadida, asosan, ot turkumiga mansub so'zlardan keng foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga, bu borada olmoshlarning ham o'ziga xos o'rni borligini ta'kidlab o'tish lozim. "Kinoya" ma'nosining voqiylanishida olmoshlarning kishilik, o'zlik ham so'roq turkumlaridan foydalanayotganligini ham yozma, ham og'zaki nutqqa oid dalillar yaqqol isbotlay oladi.

Sen va siz olmoshlari "hurmat" ma'nosida qo'llanganda, ko'pincha bosh harf bilan yoziladi. Bunday holat olmoshlarning uslubiy qirralidan birini tashkil etib, o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Mazkur olmosh bunday yozuvi bilan yozma nutqda qo'llanishi alohida ta'kidlab o'tamizki, bunday uslub ham nasriy, ham nazmiy asarlarda tez-tez qo'llanilib turiladi. Rishtalar jonimga tutashgan, biriga ozor yetsa, boshqalari teng zirqiraydigan opalarimiz... (Bekajon 19-son)

Ilohim yor topgin menga o'xshagan,

Poyingizga jonimni fido aylagan.

Afsus sizdek aqillini, qaydan topaman.

(Bekajon 19-son)

Shunday qilib, olmoshlarning har ikkala nutq turida xilma xil funksional uslubiy vazifalarda qo'llanishini ularning turli uslublarga xosligi bilan belgilash mumkin. Bundan tashqari badiiy uslubda olmoshlar, tarixiy, shevaviy variantlari bilan olinib badiiy asarlarda o'ziga xos vazifa bajaradi. Til vazifalarining badiiy matnlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi tufayli ularda tildan foydalanishning alohida uslubi shaklangan. Ana shu alohidalikning olmoshlardan foydalanishda ham yaqqol nomoyon bo'lishi ularni maxsus tahlil etishni taqozo etadi.

Adabiy asarlar matnida olmoshlarning barcha turlarini uchratish mumkin. Mavzularning turli tumanligi asarda turli jins, yosh va kasbdagi qahramonlar nutqi olmoshlarning shu tariqa keng ko'lamda foydalanishga yo'l qo'yadi. Bu qo'llanishda ular, birinchi navbatda o'zining semantik ma'nolari, ikkinchidan stilistik ma'nolari bilan ishtirok etadi. Kishilik olmoshlari badiiy matnlarda juda faol. Ularni birma-bir ko'zdan kechiramiz.

Men janr xususiyatlaridan qat'iy nazar barcha badiiy asarlarda faol qo'llanadi va o'zining grammatik ma'nosidan tashqari alohida semantik ottenkani namoyon etadi. Asosan ta'kidni ifoda etadi. Shahzodaning gunohlarini kechirmoqda bo'lsa, yurt osoyishtaligi yo'lida men sulhdan bosh tortmas edim. (O. Yoqubov. Ulug'bek xazinasi)

“Tushda kechgan umrlar”da man etdi martagina personajlar nutqida qo'llanilgan. Bo'lmasa uy obber, uch xonalimi, desam, man sizga kvartera beradigan ispolkom emasman, -deydi. Kelin-kiyov domga ko'chib kelgan kunlari eng avval man bilan tanishgan... kabi. Bu “man”ning adabiy matnlarda imkoniyati chegaralanib borayotganligidan dalolat beradi.

“Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi”da uchraydigan 2 ta faqir va 27 ta banda so'zining birontasi ham men ma'nosida ishlatilgan emas, balki o'z leksik ma'nosi-odam, inson, kishi ma'nolari bilan ishtirok etgan. Bu esa, hamma, faqir, banda so'zlarining men o'rniga qo'llanish imkoniyatlari tobora torayeb borayotganligini ko'rsatadi. Banda so'zi bilan yonma-yon men ning qo'llanilishi fikrni yanada mustahkamlaydi. Shunday ekan, men ojiza banda, shu yerda o'tirgan barcha

mo'min-musulmon mazlumalar Muhammad alayhissalomimiz o'gitlariga amal qilib, boshlariga ro'mol yopinishlarini so'rayman. Xudo men bandasini –da o'z rahmatiga olsa edi! Shuning uchun bo'lsa kerak, “Ulug'bek xazinasida” ham banda 1-shaxs birlikni ko'rsatish vazifasida bir marta qo'llangan.

Osiy banda o'z padarini taxtdan sarnigun qilgan bo'lsam... bu yumushni misli islom yo'lida qilganman, mavlono! Lekin roman matnida bandai ojiz, bandai g'ofil, osiy banda, bandai mo'min, gunohkor banda, bandai mutakkabbur, bandai nabokor kabi aniqlovchili – izofali qurilmalar uchraydi. Bandai ojiz Movorounnahirga salkam qirq yil rahnomolik qildim. Va lekin, bandai g'oful haq taoloning ixtiyorini bilmoqdan ojirdurmiz, mavlono Ali, har bandai mo'minning izmi ixtiyori o'zidadir. Yo'q. Bandai ojiz emas, bandai nobakorsen!

Men o'rnida kamina, faqir, banda so'zlarining qo'llanishi tarixan (kamtarlik ma'nosini ifodalash bilan bog'liq bo'lgan. “Ulugbek xazinasida”da aynan shu ma'nolarni bergan) Kaminadin tagin ne tilaysiz, ustod? Nahot faqirdan shubha qilarsiz, ustod?

Zamonoviy adabiy asarlar matnida kamina, faqir so'zlarining qo'llanish ko'lami torayib borayotganligi kuzatiladi va bu bilan bir qatorda, ularning semantik doirasida ham o'rganishlar sodir bo'layotganligi ko'rsatiladi. Masalan, kamina so'zi O'.Hoshimov qahramoni Soat G'aniyev va T.Murod qahramoni luttiboz “demokrat” Dilya nutqida mantanchoqlik ottenkasini ifodalash maqsadida keltirilgan. E'tiboringiz uchun, o'rtoq tergovchi, gorispolkamning uy taqsimoti komissiyasida kamina ham borlar! Chunki ko'rub turibsiz-kamina bir ojizai zaifa kabi.

J.Hamdammov “o'zbek tili tarixi” asarida Alisher Navoiy ijodida kishilik olmoshlarining tarixan faqir, bi faqir, banda, bu banda, bu bandai faqir, bu benavo, bu mazlum, bu notavon, bu telba, bu shikasta, bu qul, bu faqir, kamina singari ekvivalentlari bo'lganligini va ularni qo'llash an'analari keyingi asrlar adabiyotida ham davom etganligini ko'rsatib o'tadi va quyidagilarni yozadi: “Men” olmoshining ekvivalenti yoki dubleti sifatida qo'llanadigan so'zlar yoki so'z

birikmalari odatda so'zlovchining tinglovchiga nisbatan sub'ektiv hissiyotini, uning oldida o'zini g'oyatda kamtar, xoksor tutishini yoki tilga olinayotgan shaxsga nisbatan hurmati va samimiyati kabilarni ifodalaydi. Bunday vaqtda birinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshlari o'rnida uning uslubiy ekvivalanti sifatida ishlatilgan so'z yoki ibora o'zining leksik ma'nosini yo'qotib, olmosh ma'nosini ifodalaydi, lekin o'zining leksik ma'nosi bilan olmoshlar qatoriga butunlay o'tib ketmaydi.¹⁶

Sen olmoshi badiiy asarlardagi eng faol olmoshlardan biridir. Agar uning fe'l tarkibida kelib, 2-shaxs birligini ko'rsata olishini, shu bilan u bajaradigan grammatik vazifani zimmasiga olishini hisobga oladigan bo'lsak, sen olmoshi gap tarkibida bajaradigan leksik-grammatik vazifadan ozod b'ladi. Unda faqat stilistik vazifa qolishi mumkun:

Hamon ko'nghimga sen ilxom solursan,

Gahi Layli, gahi Shirin bo'lib.

Doimo yasharsen dostonlarimda,

Xazonsiz gul bo'lib bo'stonlarimda (Uyg'un, I.Sulton) misralarida u ta'kid, ajratib ko'rsatish maqsadida xizmat qilmoqda. Ushbu olmoshning badiiy manbalaridagi stilistik vazifasini mana shu tarzda izohlash mumkin.

Ba'zan senga ko'plik ko'rsatkichi –lar qo'shiladi. Bu holatni stilistik uslubdan ko'chgan deyish mumkin. J. Hamdamov mazkur hodisaning tilimizda qadiymiy ekanligini ta'kidlaydi: "Senlar olmoshi bir tomondan siz degan ikkinchi shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshlari ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi tomondan unda so'zlovchining tinglovchiga sub'yektiv munosabati ifodalanadi."¹⁷ Shubhasiz, bizni masalaning ikkinchi jihati qiziqtiradi. J.Hamdammovning aytganlaridan shu narsa anglashiladiki, bu olmoshning subyektiv munosabati bildirish xususiyati hozirgi tilimiz uchun yangilik emas.. Ammo uning stilistik ottenkalar bilan qo'llanishi

¹⁶ Хамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. – Самарқанд: СамДУ, 2004, 56 - 57 –бетлар.

¹⁷ Хамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. – Самарқанд: СамДУ, 2004, 58–бет.

chegaralanganligini, asosan, so'zlashuv uslubi va badiiy uslublar doirasida ishlatilishini qayd etish lozim bo'ladi.

Tahlil qilingan misollardan senlar olmoshining badiiy matnlardagi stilistik vazifalari to'g'risida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- So'zlozchining o'zidan yoshi kichiklarga nisbatan murojatida qo'llanadi va hech qanday stilistik vazifa bajarmaydi: Hali senlar ko'rganlarigini hech kim ko'rmaydi, bolalarim, inoq bo'linglar, senlarning baxtingni ko'rsam, bas, - dedi (O'. Hoshimov) Xuddi shu ma'noda O.Yoqubov uni Ulug'bek nutqida qo'llab, u orqali g'oyatda muhim, boshqa matnlarda kamdan-kam uchraydigan mehr, mehribonlik ottenkalarini bera olgan. Bu ottenkaning aniq ifodalanishini ko'rsatish uchun mikromatni to'liq keltiramiz. Va lekin qaytmay musofirlikda olamdan o'tsam ... bu xazinani ko'z qorachiqingizday saqlangiz, so'ng, inongan shogirdlaringizga topshiringiz, ular ham o'z shogirdlariga topshirgay. Va shu yusin zurriyotlarga o'tib, elimiz osmoniga oftob chiqqanda yashaydurgon baxtli avlodlarimizga yetib borgay...senlardin tilaydurgon boshqa tilagim yo'q. Ammo matn davomidagi gapda kelgan sizni sen bilan almashtirib bo'lmaydi: Faqat sizday shogirdlarimdin ming bor rozimen;

O.Yoqubov bu olmoshini favqulodda original tarzda qo'llagan, uni predmentlarga nisbatan ishlatgan: O, yulduzlar, sehri yulduzlar! U qirq yil senlarning sirlaringni bilmoq niyatida yashadi, sanoqsiz tunlarni bedor o'tkazdi. Bu yerda ham ta'kid ottenkasi, asar qahramonining yulduzlarga bo'lgan mehri aynan ana shu olmosh orqali kuchaytirilgan.

Sen olmoshi hozirgi o'zbek nutqida mensimaslik ottekanlarini beradi. Shu ma'noda O'. Hoshimov uni komissor S. G'aniyev tilida ko'p ishlatadi. Baloniyam bilmaysanlar! Hayronman, institutlaringda nimani o'rgatadi, senlarga? Senlar nima? Amallab o'qishga kirasan ... amallab bitirasan.

Sen olmoshi g'azabni ifoda etadi: Afg'onistondagi "dux"lar tilida qo'llaydi: - senlar o'zbekmi! – "dux" yorilgan lablari orasidan qon tupirib, tishlarini

g'ijirlatdi. –yo'q! Senlar o'zbekmas! Senlar musulmonmas! – U esdan og'gandek xoxolab kuldi. –Senlar “shuraviy!” (O'.Hoshimov) Olmoshning takror qo'llanishi bu stilistik ottenkalar ta'sirini yana ham kuchaytiradi.

Masxaralash, birovning ustidan kulish ottenkasini kuchaytiradi. Dedushkang senlarga yangi babushka olib keldi! – dedi Lola asabiy kulib. Yaqinda babushkang senlarga dyadya tug'ub beradi. Senlar ko'tarib yurasan! (O'.Hoshimov) “Tushda kechgan umrlar”da Lola tilidan keltirilgan ushbu gaplarda masxaralash, kulish, piching ohanglarini mikro matnning o'zidan ham payqash mumkin: Ammo olmoshning har bir gapda bir maromda takrorlanishi nutqda bu ottenkalarning aniq reallashuviga sabab bo'lmoqda.

Mazkur olmoshning takror qo'llanish imkoniyati faqat badiiy uslubda ko'p keladi: - Senlar, o'zi, qayerdansen? Senlar, o'zi, qayoqda o'sding? Senlar, o'zi, kimni bolasisan? Osmondan tush-a, to'nkalar, osmonlar shaloplab tush-a, to'nkalar. Bu kabi o'rinlarda senlar va takror usuliga xos bo'lgan takrorlash, ajratib ko'rsatish ottenkalari uyg'unlashadi. Bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan stilistik vositaga aylanadi.

Biz olmoshi so'zlayotgan kishi va boshqa kishilarni birgalikda olib ko'plik ma'nosini anglatishi uning leksik- grammatik ma'nosi hisoblanadi: O'zi –ku, bizni ilm-urfonga chanqoq xalq deydi, yana mehnatkash, no mehnatkash deb xalqni ajratgani nimasi!... (A.Qahhor). Ko'plikni umumiy tarzda anglatishdan tashqari, ba'zan aniq, ikki kishi ma'nosini ham beradi: Nechun ollo bizni bultur qovushtirmadi? (O.Yoqubov). Shu bilan birga, u funksional uslublar doirasida yana qo'shimcha ma'nolar ham anglatadi. Jumladan, badiiy manbalarda alohida semantik –sitolistik ottenkalar bilan namoyon bo'ladi. Masalan, an'anaviy tarzda men o'rnida qo'llanadi. Bu talofot sababi shukim, biz inongan lashkarboshilar, mislsiz razolatga borib, shahzoda tarafiga qochib o'tmishlar ... (O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasini). Bunda bir necha sitolistik nozikliklar yuzaga chiqadi.:

- a) Kamtarlik, ottenkasi: Bizning dargoh to'g'ri kelmasa ... kamina ne qilay? (O'.Hoshimov Tushda kechgan umrlar);

- b) Manmanlik, maqtanish ottenkasi: Buyog'ini bizga ko'yib bering. Buyog'ini biz boplaymiz! (T. Murad. Otamdan qolgan dalalar);
- c) Hoksorlik ottenkasi: Biz bir dalada yurgan dehqon bo'lsak (T.Murod);
- d) Erkalash ottenkasi: Jinni! Ayiq! – Shahnoza erkalanib qo'lidagi qoshiqchasi bilan yana tahdid qildi – yomon bola bo'psiz! Bilib qo'ying, bizdayam qurol bor. Bir ursam! Shunday deb ro'molchasi bilan menning lablarimni artib qo'ydi. (O'. Hoshimov. Tushda kechgan umrlar)
- e) ajratish yoki birgalik ottenkasi: sen bilan biz - o'zbekimiz (O'.Hoshimov.Tushda kechgan umrlar)

Sen bilan biz faqat “opazdivat” qilamiz. (T.Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi)

v) yaqinlik ottenkasi: Agarchi humo qushi shahzodaning boshiga qo'nib, yurt osoyishi buzilsa... rasadxonadagi barcha nodir kitoblar, barcha noyobqo'lyozmalarni asrab qolmoq siz-u bizga yuklanibdur, birodari aziz.... (O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasasi)

Mazkur olmoshda birgalik ottenkasi men o'rnida qo'llanmagan taqdirda ham namoyon bo'lishi kuzatiladi. O-o-o, qo'shin bizda bor-da! Qayta quruvchilir qo'shini! Biz Gippakrat oldida qasam ichganmiz (T.Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi).

Birgalik va umumiylikni anglatish jarayonida “biz”ning semantik ko'lami yanada kengayib ketadi. U shaxsga nisbatan qo'llanish doirasidan tashqariga chiqadi va qandaydir tashkilot yoki idoralarga, ularning vakillariga ishora qiladi. Bizga umumiy gap emas, aniq dalil kerak. Biz haqiqatni aniqlashimiz, eringizning qotillarini topishimiz kerak (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar)

Ba'zan biz olmoshining qo'llanishi metonimiya hodisasining yuz berishiga qo'llanishiga sabab bo'ladi va u gapda boshqa bir so'zning vazifasini o'z zimmasiga oladi. Siz bizda o'qirdingiz-a! – dedi hamon jilmayib (O'.Hoshimov). Bu holat so'zlashuv uslubida ko'proq kuzatiladi.

Biz badiiy matnda obraz yaratishning kuchli vositalariga aylanadi. Biz ishimizni bilib qilamiz. Biz Ukrainada ocharchilikka qarshi kurashib, rosa tajriba

to'plaganmiz. Biz ana shu tajribalarimizdan kelib chiqib ish qilamiz. Biz mana shunday yo'l bilan ocharchilikka qarshi ko'ramiz. (T.Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi)

Achinish, afsuslanish ottenkalarini kuchaytirishga ichki tug'yonning yuzaga chiqishiga ko'maklashadi. Ana, bizni shahrimiz-yaraqalaydi!

Bizni shahrimizni ko'rgan odam ... o'lgisi keladi! O'tgan sayin, o'lgisi keladi! Bizni shahrimizni ko'rgan odam ... tezroq omonotimni topshirib... shu shahardan makon topsam deydi. (T.Murod).

So'zlashuv nutqida bo'lgani singari badiiy nutqda ham biz olmoshi maqtanish, o'zini ko'rsatish ma'nolarini ham ifodalaydi. Chaqirtirgan ekansiz, mana biz keldik. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, biz nima qilib yuribmiz: biz ham bormiz aka kabi. Bu kabi gaplarda u Grammatik jihatdan men vazifasini ado etadi. Biz olmoshi badiiy matnlarda ko'rsatish olmoshini yuzaga keltiradi. Bizning mashina ro'paraga kelib to'xtashi bilan "Burbuxayka" kabinasida avtomat tarilladi. Mashinamiz adir tepasiga to'xtagan, pastda, ancha olisda qoya panasidagi muyulishda "burbuxayka" (avg'onlarning yuk mashinasini shunaqa deymiz) turar edi. Hayriyat, postga boshqa ekipaj yuborib, bizning tankni qismga qaytarish haqida buyruq bo'ldi. Tankimiz toshlar uyumi orasiga ko'milib ketibdi. (O'. Hoshimov. Tushda kechgan umrlar) Bizni Rajabovni ozod qiling, jo-o-on uka! (T. Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi) misolida esa Rajabovning yaxshi odam ekanligiga ishora mavjud. Asar mikromatnidan ham shu narsa anglashiladi. Bizni Dilya ham chekadi. Ichishini bilmadim. To'y-ma'rakalarda ichadi, deyishadi. (T. Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi) Gapdagi biz olmoshining sitilistik ma'nosi esa butunlay boshqacha. Unda go'yo yaqin olib gapirayotganday tuyulayotgani bilan, Dilya va uning xatti – harakatlariga nisbatan nafrat, norozilik bor. Shuning uchun bizning Dilya jumlasining piching ottenkasi, salbiy munosabat anglashiladi. Odatda ijobiy ma'noni beradigan so'zni salbiy ma'noda qo'llash tilning muhim sitilistik imkoniyatlaridan biridir.

Mana bu misolida ham bizning qo'llanishida alohida ekspressivlik ajratib turadi: Ishonasanmi, o'g'lim: ba'zan qarab turib kulgim keladi. Xo'p, men-ku, "gunohkorman", "jinoyotchiman". Bizdaqa "yomonlar"ni "yaxshi" yo'lga soladiganlar- chi? (O'. Hoshimov). Gapning umumiy mazmunidan bizdaqa olmoshidan so'zlovchi o'zini kamsitmoqda, past olmoqda deb tushunish mumkin. Aslida so'zlovchi bu niyatda emas, so'z bu o'rinda uni yomonotliq qilganlarga bo'lgan nafratini ifoda etishga ko'maklashmoqda. Mazkur olmoshning stilistik imkoniyati mana shulardan iborat.

Ushbu tahlillar badiiy mantlarda biz olmoshining semantik-stilistik imkoniyatlari keng ko'lamda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu o'ziga xosliklarning ma'lum qismi olmoshning so'zlashuv uslubida anglatgan ma'nolariga mos keladi. Bu murojaat tarixiy-badiiy asarlarda yanada faollashadi.

Tahlilda yengillikni ko'zlab, uni ham kishilik, ham ko'rsatish olmoshi sifatida olib qaraymiz. U, ular barcha matnlarda bo'lgani singari badiiy asarlarda ham faol va barcha uslublar uchun betaraf sanaladi. Tilimiz tarixida u, ul, shakllarida qo'llanib kelingan ushbu olmoshining ul shakli hozirgi adabiy tilimiz uchun me'yor sanalmaydi. Uning imkoniyatlari hatto so'zlashuv uslubida ham chegaralanib qolgan. Faqat badiiy matnlarda unga murojaat qilinadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra nasriy, badiiy asarlardan olingan ul so'ziga uchta romanda faqat bir o'rinda murojaat qilinganligi, uning prozaek asarlar tili uchun xos emasligi mumkunligini ko'rsatadi: Aqil-zakovat bobida... ul zotga teng kam topiladi. (T.Murod) kabi.

Poetik asarlar matnida esa manzara o'zgaradi. Masalan, Zulfiyaning "Shalola" va "Mushoira" toplamida u olti marta, M.Alining "Saylanma"sida esa 49 marta qo'llangan. Bu qo'llanish darajasi ijodkorning har bir so'zga, bu o'rinda u va ul olmoshlariga bo'lgan individual munosabatni ham belgilaydi.

Daryolarning ul yuzidan kelgan suzmi, yor-yor,
To'lin oyday yashnab kelgan Zaynab qizmi, yor-yor
(Zulfiya)

Bugun ul do'stlardan darak yo'q, mana. Bugun ul qizaloq qaydadir, hayhot! (M.Ali) kabi. Har qalay bir narsa aniq: Tilimizda qadimdan bap-baravar qo'llanib kelayotgan u va ulning qo'llanish imkoniyatlari hozirga kelib, funksional jihatdan chegaralangan. Ul badiiy uslubga xoslangan. Bu olmoshning aniq ko'rinishi haqida ham shu fikrni aytamiz: Bobongiz fatk etib shuhrat qozondi jumla dunyoni, Bu odam ko'rmagay endi, aningdek zoti a'loni. Aning kalomini o'zing eshitding! (O.Yoqubov). ko'plik korsatkichi ularning tarixiy alar shakli ba'zan birlikda qo'llanadi va badiiy estetik jihatdan g'oyatda kuchli samara beradi: Biz Amir Temur... - ollo taolo alarga bog'i rizvonni makon qilgay! – Amir Temir avlodidan yaxshilik ko'rgan bo'lsak, yomonlik ham ko'rdik. Xazinadan bobong Amir ul mo'minin... - tangi taolo alarga Firdavsi a'loni makon qilgay! – bobong Amir Temur javohirati yo'qolgan emish... (O.Yoqubov) Tilimiz tarixida ham shu stilistik ottenkani bergan “alar” bugungi badiiy tilida yuqori uslub namunasi sifatida ishtirok etadi. Ko'rsatish olmoshlari ilmiy manbalarda bu, shu, o'sha olmoshlari va ularning ko'plik ko'rsatkichi –lar qo'shilgan shakllari ko'rsatish olmoshlari sifatida e'tirof etilgan va ular-day,-doq,-daqa,-daqangi,-cha,-chalik kabi qo'shimchlar bilan kelgan paytlarda sifat va ravish xarakterida ishlatilishi ta'kidlangan.¹⁸ Shuning uchun tahlil ko'lamini cheklaymiz va faqat badiiy uslubda bu, shu, o'sha olmoshining qo'llanish xususiyatlari haqida mulohaza yuritamiz. U, ular haqida ko'rsatish olmoshlar qismida so'z yuritiladi. Bu, shu, o'sha olmoshlari qadimiy bul, shul, o'sha, ushul, oshul elementlarining fonetik o'zgarishiga uchragan, qisqargan shaklidir.¹⁹

Olmoshlarning, xususan ko'rsatish olmoshlarining shakllanish tarixi haqida kuzatish olib borgan S.Ibrohimov ul, bul, shul, o'shal so'zlarni bu turdagi olmoshlarning to'liq shakli sifatida baholaydi va o'zbek tili taraqqiyotining keyingi bosqichlarida oxirgi tovush qisqarib u, bu, shu tarzda aytilishi... haqida

¹⁸ Ўзбек тили грамматикаси, 1 том –Т, 1975 337-343- бетлар

¹⁹ Ўзбек тили грамматикаси, 1 том, 339- бет. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Фан, 1973 95-99- бетлар.

mulohazalar bayon qilinadi.²⁰ Olim ko'rsatgan bu variantlarning ikkinchisi uslubiy betaraf xarakterga ega va o'zbek tilining barcha funksional uslublarida qo'llanaveradi.

Tilimiz tarixida ko'rsatish olmoshlarining to'liq shaklda ifodalangan ul, bul, shul, o'shal kabi ko'rinishlari bugungi adabiy tilimiz talablari nuqtai nazardan me'yoriy sanalmaydi. Ularning tarixan qo'llanishida esa stilistik ottenkalari namoyon bo'lmagan. Ammo ushbu shakllarning hozirgi o'zbek tilidagi funksional uslublaridan badiiy uslublarda yashab kelayotganligi davrlar o'tishi bilan ularga shu uslub doirasida ekspressiv ottenkalarning yuzaga kelganligi bilan izohlanadi. Hozirgi o'zbek she'riyatida ularning qo'llanishi, garchi she'r mazmuniga o'zgarishlar kiritmasa ham, ifodaga ko'tarinki ruh bag'ishlaydi, uning yuqori uslubda va darajada berilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jadvaldan anglashilib turibdiki, ko'rsatish olmoshlarining hozirgi adabiy tilimizdagi barcha ko'rinishlari faol bo'lib, ular orasida bu va shu olmoshlari qo'llanish chastotasiga ko'ra ustunlik qiladi. Ularga qaraganda o'sha olmoshining bu olmoshiga nisbati deyarli to'rt, "shu" ga qaraganda ikki baravar kam qo'llanishi unda rasmiylik ottenkasining mavjudligi bilan izohlanadi. Ushbu olmoshi haqida ham shu gapni aytish mumkin. Tahlillar boshqa asarlarga ayrim qahramonlarning "firqaviyligi", rasmiy kishilar hisoblanishi, ularning hayoti va faoliyatiga oid voqyealar o'rni bilan rasmiy ohangda tasvirlanganligiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. B.Yusupov "Eski o'zbek tilida ko'rsatish olmoshlari (XV – XVI)" nomli maqolasida ushbu, o'shal, o'shul kabi ko'rsatish olmoshlarining stilistik xususiyatlari haqida so'z yuritgan. Ushbu olmoshni u bilan ma'nodor bo'lgan olmoshlarga qiyoslar ekan, "so'zlovchi predmetlarni aniq, konkret, ajratib ko'rsatmoqchi bo'lgan taqdirda ushbu olmoshlarni ishlatadi. Aniq voqyealar, sanalar ko'proq uchraydigan asarlarda (masalan, "Boburnoma" va tarixiy dostonlarda) ushbu ko'proq ishlatilgan. Chunki bunday asarlardagi o'sha voqyea-

²⁰ Иброҳимов С. Айрим олмошларнинг эволюцияси масаласига доир. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1960. 56 – бет.

hodisalar sodir bo'lgan paytni aniqroq, tasvirlash ushbu olmoshlarini ko'proq qo'llashni taqazo etadi. Lirik asarlarda ushbu olmoshi kam ishlatiladi. Bu hol mazkur janrning tabiatidan kelib chiqadi. Masalan, Bobur lirikasida (189 bet) hammasi bo'lib 13 marta, "Mubayyin" risolasidan olingan "Kitob-ul zakot" (16-bet) nomli soliq yig'ish tartib-qoidalariga bag'ishlangan she'riy parchada esa 33 marta uchraydi. Demak, ushbu olmoshi adabiy tilning turli uslublarida har xil miqdorda ishlatilgan".²¹

Maqola muallifi o'shulga ushbu ko'rsatish olmoshining muqobili (varianti) deb qaraydi. O'shal va o'shul olmoshlarining bir-biridan deyarli farq qilmasligini ta'kidlagan holda ular o'rtasidagi stilistik farqlari ko'satib beradi va ularning o'zaro almashtirilib qo'llanishi bilan bitta so'zning hadeb takrorlanaverishiga yo'l qo'ymaydi, deydi. Ammo olimning "bu ikki olmoshni bir birining o'rnida ishlatish ularning sinonimligidan darak beradi"²², degan fikri bahs talabdir. Bizningcha, ularning qo'llanishida sinonimi munosabatdan ko'ra funksional chegaralanish kuchliroqdir, muallif ham buni payqagan

O. Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida bul olmoshining 31 marta, shul olmoshining 6 marta, o'shalning 10 marta qo'llanilganligi roman mavzusining tarixiyli va undagi personaj nutqi bilan bog'liq, O'. Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar"ida umuman uchramasligi ham asar mavzusining zamonaviyligi bilan izohlanadi.

Ko'rsatish olmoshlaridagi arxaik shakllar hozirgi adabiy tilimiz meyor sanalmaydi va ular faqat tarixiy matnlar hamda sheriyat tilida saqlanib qolgan deb ayta olamiz:

Tig'iz bo'lsa hamki fursati g'oyat

Jahongir bul yurtga to'xtabdi biroz.

Sening qadamingga o'qirman afsun

Va qilurman o'shal yorni ziyorat (M. Ali)

²¹ Юсупов Б. Эски ўзбек тилида кўрсатиш олмошлари (XV – XVI асрлар) Ўзбек тили ва адабиёти – 1986 №3, 23-бет.

²² Юсупов Б. Эски ўзбек тилида кўрсатиш олмошлари. Ўзбек тили ва адабиёти – 1986 №3, 23-бет.

Tahlillardan anglashiladiki, bu, shu, o'sha olmoshlarining badiiy uslubda qo'llanishiga alohidalik ko'zga tashlanmaydiva bu ularning funksional uslublararo betarafligi bilan xarakterlanadi.

So'roq olmoshlari. Ilmiy adabiyotlarda so'roq olmoshlar orqali so'zlovchi nutq jarayonida ishtirok etuvchilardan o'ziga ma'lum bo'lmagan narsani aniqlab bilishi aytilgan va badiiy uslubda ham asosan shu ma'nolari bilan ishtirok etadi.²³

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'roq olmoshlar orqali kim, ne / na, nechun, nechuk, nega, nima, nima uchun, necha, qay, qaysi, qanday, qani, qancha, qachon singari o'ndan ortiq turlari mavjud.

Besh muallif asarida ham kim, necha, nega, nima, qancha, qanday, qani, qachon kabi olmoshlarning qo'llanishidagi mo'tadillik buni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Notekislik deganda ne /na, nechun, nima uchun olmoshlarining qo'llanish chostotasidagi har xilliklarni tushunayapmiz. Masalan, son jihatdan birinchi o'rinda turgan ne olmoshi O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida 793 marta, Muhammad Ali "Saylanma" 89 marta, Usmon Azim "saylanmasi"da 30 marta qo'llangani holda, O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida atigi 1 marta va T. Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida 2 marta qo'llangan. Har bir ijodkorning so'z qo'llashdagi individualligini inkor etmagan holda ushbu faktlarga tayanib aytish mumkinki, ne olmoshining qo'llanishi tarixiy mavzudagi prozaik va barcha poetik asarlar doirasida chegaralangan:

Menga erk na hojat, na hojat menga?

Intilib, yalinib –yolvorib senga,

Topinib yashamoq buyuk saodat!

(M.Ali)

Intirqin yer edi xokisor

Aqil ko'zi hech na ilg'amas...

(M.Ali)

²³ Юсупов Б. Эски ўзбек тилида кўрсатиш олмошлари. Ўзбек тили ва адабиёти – 1986 №3, 23-бет.

Demak, hozirgi adabiy til miyorlari nuqtai nazaridan qaralganda ne/na olmoshlarining nutqda qo'llanishi chegaralanib borayotganligi nafaqat badiiy uslubda saqlanib turganligi ni dadil ayta olamiz:

Faqatgina o'z so'zidan iborat bo'lgan o'zlik olmoshi badiiy matnlarda ham betaraf birlik sifatida ishtirok etadi. Ushbu olmosh semantik ma'nosining taraqqiyotida so'zlashuv jarayonida sodir bo'lgan ma'nolari bilan badiiy matnlarda ko'chgan va aksariyat hollarda personaj nutqida qo'llanadi.

O'z olmoshi bir shaxsni ajratib ko'rsatish, yakkalik semasi bilan qatnashadi. Ziyofat tafsilotlarini eslab, ta'bi battar xira bo'ldi: o'zi behad hurmat qiladigan, alohida lutf bilan taklif etilgan keksa bir olim tantanaga kelmadi, kim bilsin, munosib ko'rmadimi? (X. Sultonov. Bir oqshom ertagi, 59-bet) U o'ziga tarbiya bergan kampirni bibim derdi. (O. Muxtor. Yillar shamoli, 3-bet)

O'zlik olmoshi o'zini ta'kidlash ma'nosida ham qo'llanadi. Unga –muncha narsani bular nazar-pisand qilmasa, qimmatini qayoqdan olaman, o'zim bir qaram benavo bo'lsam.(U. Nazarov. Chayon yili, 47-bet) Bir o'zim shoshmay narsalarni yig'ishtira boshladim. (U. Nazarov. O'zgalar uchun, 4-bet) –A?.. Yo'q, yaqinda keldim, -dedi. (X. Sultonov. Bir oqshom ertagi, 23-bet). Deyman, dehqonchilik o'zi bir dunyo ish bo'lsa, boshqa ishlarni qachon o'rgandingizu bunday ishlarni qilishga qanday ulgurasiz?! (O. Muxtor. Yillar shamoli, 41- bet) Ayrim hollarda favqulotdagi nutqni hosil qilishda ham o'zlik olmoshi ishtirok etishi mumkin bu holat ham uning semantik-stilistik qirralari ko'pligidan dalolat beradi. M.M.Do'stning "Galatepa qissalari"dan olingan ushbu matnda qahramonning individual nutqini hosil qilishda o'zlik olmoshi xuddi shu fazifani bajargan. O'zingizda bo'lasizmi?- deb so'radi. Binafshaxon, ovozida favqulotda hurmat va hayiqish zuhur bo'ldi. –Ha, shu yerdaman, -dedi Elomonov, so'ng xotiniga shirinroq qilib tanbeh berdi: - G'alizroq gapirdingiz, xonim, ona tilimizda odam o'zida emas, aniq bir joyda, masalan, kabinetda bo'ladi. (M.M.Do'st. Galatepa qissalari, 138- bet)

O'zlik olmoshi takrorlanib, kuchaytirish ma'nosini ham bildiradi.

Ahvolimdan qilayotgan ishimdan o'z- o'zimga xo'rligim keladi. (Said Ahmad. Qorako'z majnun, 34-bet)

E'tirof ma'nosini ham bildirish mumkin. Qiz uzatishning o'zi bo'lmasa... (X. Sultonov. Bir oqshom ertagi, 103-bet) Siz o'zingiz bo'lmagan holda menga qachalik dalda berganingizni bilsangiz edi. Faqat rahmat ayta olaman. (X. Sultonov. Bir oqshom ertagi, 18-bet) O'zlik olmoshining so'zlashuv va badiiy nutqda qo'llanishda uning ko'plik va egalik qo'shimchalarini olgan varianti o'zlari ajralib turadi. Badiiy matnlarda esa o'zlari olmoshi personajlar nutqida asosan hurmat semasi bilan qatnashishi kuzatiladi. Endi, mana shu kasalxona rayonimiz territoryasida ekanidanmi yo sizni qo'llab-quvvatlashimni bilganidanmi, o'rtoq, Rajabov meni jo'natdi. (T. Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi)

Shaxsan o'zlari jo'natdi!... (T. Murod) Sof ko'pli ma'nosida keladi. Odamlarning bir- birlariga qaraq o'zlarini rostlaydilar. (O. Matjon. Iymon yog'dusi, 132-bet) – Yo'q, meniki bo'ladi, o'zlaring bir balo qilib amallab qo'ya qollaring, -dedi Omon. (G'. G'ulom. 10-tom, 165-bet) O'z olmoshining 2- shaxs ko'plik yoki 1- shaxs birlik o'rnida qo'llanishida ham milliy odatga xos bo'lgan ma'noda anglashilib turadi. Aybga o'zlaring qayerdan so'raymiz? Biz Toshkentdan, ota. (U. Nazarov. Girdob, 112-bet) Bu olmosh ta'kid ma'nosida ba'zan nutqni individuallashtirish maqsadida ham qo'llanadi. Chala tush ko'rdim, ro'paramdan bir it chiqib, sovuqda qaltirab g'inshir emish. Shu g'inshiyotgan kaminaning o'zlari emishman. (G'ofur G'ulom. Asarlar 10-tom, 187-bet) Belgilash olmoshlari (hamma, barcha, bari, jami, yalpi, butun har kim, har nima, har qanday, har qancha , va hk.) badiiy matnda qo'llanilgan olmoshlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ammo bu mahsuldorlik ularning badiiy matnda xoslanganligini bilirmaydi. Ular o'zbek nutqining barcha ko'rinishlarida faoldir.

Badiiy matnlarda yalpi so'zining uchramaganligi uning rasmiy, ilmiy matnlarga xoslanganligi, har nima, har qanaqa, har qaysi olmoshlarning barcha uslublarda ham kam qo'llanishi va ijodkorlarning bu olmoshlarga bo'lgan individual munosabati bilan izohlanadi.

Bo'lishsizlik olmoshlari (hech kim, hech nima, hech qanaqa, hech qaysi) badiiy matnlarda kelganda butunlay yangi ko'rinish kashf etmaydi.

Badiiy matnning o'ziginagina tegishli bo'lgan bo'lishsizlik olmoshlari yo'q. Ammo ijodkorlarning ularga bo'lgan munosabati turlicha. Bu holatda ular bo'lishsizlik olmoshlarining sinonimik qatoridan faqat birgina birlikni qo'llash afzal ko'radi, boshqa bir holatda esa bu olmoshlarni shaxs, predmet-hodisa va harakatga nisbatan ishlatishda farqlaydi.

Bo'lishsizlik olmoshlari qo'llanishining deyarli yarmi hech kim zimmasiga tushmoqda. Faollikning ikkinchi pog'onasini hech bir, hech qachon, uchunchi pog'onasini hech narsa, hech nima olmoshlari ishg'ol qiladi.

Masalan, O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida 22 marta qo'llangan hech kim bo'lishsizlik olmosh matnda hech kim yo'q, hech kimning ko'ziga ko'zi tushmadi, hech kimdan sas/un chiqmadi, hech kim tob berolmadi, hech kim qaramadi, hech kimni qabul qilmadi, hech kim ko'rinmadi, hech kim javob bermadi, hech kim kuttirmadi, hech kim tegmadi singari gaplar tartibida turli xil grammatik vazifalarni ado etgan.

Hovliga siz xo'jayin. Sizga hech kim xo'jayin emas. (X.Sultonov, Bir oqshom ertagi, 98-bet) Qorong'ida hech narsa ko'rinmaydi. Buta shoxlari orasidan mashina chirog'i arang ko'rinardi. (S.Ahmad. Qorako'z majnun, 28-bet) Pilla ayniqsa qiyin bo'ldi. (U.Nazarov. O'zgalar uchun, 57-bet) Hech narsa ko'rmagandek bo'lasiz-qo'yasiz. A? (X.Sultonov. Bir oqshom ertagi, 106-bet)

Gumon olmoshlarning mavhumlikni, noaniqlikni ifoda etishda ikki grammatik ko'rsatkich – alla va –dir qo'shimchalari ishtirok etadi va ular ma'lum o'rinlarda sinonimik munosabatga kirishi mumkin. Masalan: ko'ngli notinch davlatpanoh esa bunga allaqanday umid bog'lar, nimanidir kutar edi. (O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasini) – Ko'ngli notinch davlatpanoh esa bunga qandaydir umid bog'lar, nimanidir kutar edi. – Ko'ngli notinch davlatpanoh esa bunga allanechuk umid bog'lar nimanidir kutar edi kabi.

Badiiy matnlarda qo'llanish imkoniyati –dir qo'shimchali olmoshlarga qaraganda alla bilan hosil bo'lgan olmoshlarda ko'proq ekanligi ma'lum bo'ladi. S. Karimov bu haqda quyidagilarni yozgan edi. “Gumon olmoshlar ichida aksariyat mavhumlikni, noaniqlikni ifodalaydigan, ko'proq his- tuyg'ular ifodasida ishlatiladigan allaqanday, allanechuk va gumon yuklamasi bilan birga kelgan qandaydir, nechundir, nimadir, negadir olmoshlarni badiiy uslub doirasida qarash to'g'ri bo'ladi”²⁴. Shunga asoslanib ularda badiiy uslubga moyillik borligi va unda “dir”ga nisbatan ma'lum darajada ekspressivlik mavjud ekanligini aytish mumkun. –dir qo'shimchali gumon olmoshlarining so'zlashuv nutqida faolligi va umumuslubiy shakllanadigan gumon olmoshlarning ham predmet, ham belgiga nisbatan qo'llanishi tufayli ishlatilish ko'lami kengdir.

Badiiy uslubga xoslangan gumon olmoshlar haqida so'z ketganda ularning ayrim tarixiy shakllarini yodga keltirish zarur. Gumon olmoshlarining tarixiy shakllari kimse, kimerse, burevlar shaxsga nisbatan nimerse predmetlarga, jonivorlarga, voqea - hodisalarga nisbatan, falanlar ikkala holda ham qo'llanadi.²⁵ Binobarin bu gumon olmoshlarining ayrimlariga tarixiy mavzulardagi asoslarga duch kelamiz: Qani bir kimarsa amrini vojib qilmay ko'rsinchi? ... Zero bu hodisalardan bir kimarsa borobar bo'lsa ikkovimiz ham badnom bo'lamiz... - ko'nglim boshqa nimarsani istaydi, shuaro tili bilan aytganda, gul iskamoqni tilaydi, amirim! (O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasi)

Shunday qilib, badiiy matnlarda olmoshlarning ko'pligi tarixiy variantlari qo'llanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu badiiy adabiyotning voqealari qamrab olish ko'lami, ya'ni tarixiyli va tasvirim koniyatlarining kengligi bilan izohlanadi. So'zlashuv uslublarining birontasida adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan bunga yo'l qo'yilmaydi.

Poetik nutqda so'z mazmunan his-hayajonga yo'g'rilgan, nihoyatda tiniqlashgan, teranlashgan bo'lishi shart. Har bir so'z shakl-shamoilga, rang-

²⁴ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби.– Самарканд: Зарафшон, 1992, 59-бет.

²⁵ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1973, 112-бет.

bo'yoq, "maza", salmoq va ohangga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun poetik nutq o'ziga xos nutq bo'lib, bu o'ziga xoslikini lirikaning predmeti keltirib chiqaradi. She'riyatga xos hissiy fikrlash, monologik nutq uning so'z poetikasi ham o'ziga xos olamni yaratadi. Bu olamni yaratishda so'z turkumlari muhim o'rinni egallaydi. Garchi ot, sifat, fe'l singari so'z turkumlarining poetik kengligi olmoshlarda uchramasa-da, olmoshlar ham o'zining semantik-stilistik xususiyatlari bilan she'riy nutqda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. She'riy nutqda olmoshlar sinonimiyasidan, she'riy, tarixiy variantlaridan keng foydalanganlik holatiga duch kelamiz. Bu nutqni g'aliz qilmaydi, aksincha, she'riyat talabidan kelib chiqadi va bu holat ba'zan muhim stilistik vazifani ado etishga xizmat qiladi.

Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam
Zavol bilmashu yoshining bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,
Do'stu-yoring, dardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida,
Boqiy turgay basharang sening.
Mangu yorug' peshonang sening,
Mangu yorug' maskanim manim.
O'zbekiston vatanim manim.

(A.Oripov. 1-jild, 181-bet)

Bu matndagi "manim" shakl "men" olmoshining shevaviy variantidan olingan. Lekin she'rga ajoyib ruh bag'ishlab turibdi. Muhammad Yusufning ushbu she'rida esa "mening" tarzida qo'llanib, unda ham o'ziga xos nutqni hosil qilmoqda.

Bor bo'l bag'rimda mudom,
O'tli imonim mening.
Qon bo'lib ketganda ham,
Tanamda bu jonim mening.
Menga bu jahon nadir

Topmasam topsam qadar.

Bulbuldek zabonim mening

(M.Yusuf. Biz bahtli bo'lamiz, 53-bet)

Ba'zan olmoshlar nutqda ko'p takrorlansa uslubiy jihatdan g'alizlik kelib chiqadi, lekin she'riyatda bunday holat kuzatilmaydi. Shu takror o'ziga xos vazifa ta'kid, kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Haddim bormi sizga bir so'z demakka

Hatto uzr aytmoqqa sig'armi haddim

Sizning husningizga boqqani yakka

Qancha savdolarni boshdan o'tkardim

Sizga ikki olam boricha nisor

Siz ikki olamdan balandsiz mutloq

Sizga faqatgina teng bo'lmoq darkor

Sizga faqatgina lozim sig'inmoq.

(A.Oripov. O'sha asar, 247-bet)

Sen borsan—men uchun bu hayot go'zal

Sen borsan—men uchun dilbar koinot

Sensiz qolar edim zulmatda tugal

Sensiz qolar edim butkul bemurod.

(A.Oripov. O'sha asar, 247-bet)

Takrorning boshqa bir ko'rinishi ham olmosh orqali vujudga kelganini ko'ramiz. Bu holat ham she'rga boshqacha bir ruh bag'ishlagan.

Odam yaralgandan beri

Odam yaralgandan beri

Ajdodlarim imdodini

Menga bering, menga bering.

O'g'lim deb ishongan elim

Kindik qonim tomgan elim

Tuyg'ularim ozodini

Menga bering, menga bering.

(M.Yusuf. Biz baxtli bo'lamiz, 36-bet)

She'riyatda olmoshlar takrori har qanday o'rinda ham kelib o'ziga xos stilistik vazifani bajaradi.

Yor eshiging ochilmadi men uchun,

Tilingdan bol sochilmadi men uchun.

Yoningdan joy topilmadi men uchun,

Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay.

(M.Yusuf. O'sha asar, 154-bet)

Xalq og'zaki ijodida ham olmoshlar keng qo'llanadi bu esa olmoshlarning vazifa ko'lami nihoyatda serqamrov ekanligidan dalolat beradi. Masalan, bitta bu olmoshning qo'llanish chastotasiga e'tiboringizni qaratsak. Shu holatning o'zi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isboti bo'lib, hizmat qiladi. Bu olmoshi Alpomish dostonida 1069 marta, uning bu varianti esa 466 marta, Ravshan dostonida bu olmoshi 139 marta, Rustamxon dostonida 282 marta qo'llangan. Lug'atda bu olmoshi eng ko'p qo'llangan so'zlar qatorida turibdi²⁶. Mana shu dalilning o'zi olmoshlarning nutqdagi o'rni ancha faolligidan dalolat beradi. Shu o'rinda aytish kerakki, adabiy til me'yorida mavjud bo'lmagan man, san, ul, alar, na, ne, nechuk, nechun, undoq, bundoq, shundoq, munday, kimsa, har kimsa, bir kimsa, nechundir, faqir, kamina, janob, banda, hech banda, allanechuk, nechundir, qandoq olmoshlari she'riyat talabi bilan, ba'zan qofiya talabi bilan, ko'tarinki nutqni ta'minlash individual nutq hosil qilish, tantanavor ruh hosil qilish uchun poetik nutqda keng qo'llaniladi.

Xalq og'zaki ijodida ham ko'proq bugungi kunda sheva varianti deb o'rganiladigan olmoshlar yoki tarixiy shakl deb o'rganiladigan olmoshlar keng uchraydi.

Daryolarning ul yuzida uylaringiz

Oqaribon ko'rinadi bo'ylaringiz.

²⁶ O'rinboyeva D. O'zbek xalq dostonlari tilining chastotali lug'ati. – Toshkent, 2006, 124-184-betlar.

(Xalq qo'shig'i)

Charx yigirib, charx yigirib,
Shul qo'lgina tolatur.
Agar shuni yigirmasam,
Bolalar och qolatur.

(O'zbek adabiyoti. 5-sinf, 24-bet)

Gumon olmosh "nimadir" ayrim shevalarda bir balo tarzida ham ishlatiladi. Shu ko'rinishda she'rlarda asosan, xalq og'zaki ijodida ko'p uchraydi.

Charxim tanob tashlaydi,
Bir baloni boshlaydi.
Kundoshligi qurisin,
Kunda urush boshlaydi.

(O'zbek adabiyoti, 24-bet)

Ba'zan poetik nuqda olmoshlar kuchaytirish ma'nosini ham o'zida ifodalaydi. Quyidagi misralarda bo'zchining o'z ishidan juda ko'ngli to'lgani, bo'zni nihoyatda mohirona to'qilganini, sevinchini ifodalash uchun shunday olmoshlardan foydalanmoqda.

Do'kan uyga kirsam, tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o'lmay qolsam yaxshiydi.
Qarisi tillaga ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo'zim arzon ketarmi?

(5-sinf, 27-bet).

Topishmoqlarda o'zlik olmoshining semantik xususiyati kengayganligini ko'ramiz.

O'zlik olmoshi asosan uch shaxsdan birini ta'kidlab ifodalash uchun ishlatiladi. Biroq topishmoqlarda predmet, narsa o'rnida qo'llanadi, yashiringan narsani ifodalash uchun qatnashadi.

O'zbek xalq topishmoqlari kitobining 176-178 sahifalaridan olingan topishmoqlar fikrimizning dalilidir.

O'zi bitta,

Ko'zi mingta.

(Angishvona).

Hammaga to'n tikaman,

O'zim yalang'och.

(igna).

Kichkina xotin

Chachvoni uzun.

(igna, ip).

O'zi mitti

Ovozi olamga yetdi.

(surnay).

Bolalar adabiyotida esa sodda olmoshlar keng qo'llanilgan. Men, sen, biz, u, kim, nima, qancha, bu, shu, olmoshlar ko'proq qo'llanilganligi kuzatiladi. Bu bolalar tilining soddaligi ruhiyati bilan bog'liqdir.

O'ynab uchgan,

Laylak qor.

Qanotingda

Nima bor?

(V.Ahmadjon, Gulxumorning gulbog'i, 17-bet).

Mehri xola sevinib,

Nabirasin quchib der.

Boshim yetar osmonga,

Seni ko'rsam, Alisher.

-Sizga mazza bo'larkan,

Ko'rinarkan hamma yer.

(O'sha asar, 19-bet).

Xusnixatni sen uchun,
Kim yozadi, rostin ayt! –
Muallim so'rog'iga
Javob berar Toshpo'lat:
-Dadam bilan oyimni,
Har kech chorlab tolaman.
Kim yozganin bilolmay,
Oxir uxlab qolaman.

(O'sha asar, 29-bet).

Qo'yni to'la shaftoli,
Mashrab turar yer chizib.
“O'g'risan” deb akasi,
Do'q urar bo'nin cho'zib.
Olgan joyinga hozir,
Barin to'kib kelasan.
Yo bo'lmasa menga ham
To'ygunumcha berasan...

(17-bet).

Bu she'rda favqulotdagi, kutilmagan g'oyani ifodalash uchun yozuvchi “men” olmoshidan foydalanmoqda. Bu ham olmoshning boshqa so'z turkumlariga o'xshamagan o'ziga xos semantikasidan dalolat beradiki, shu yerda olmosh o'rnida biror bir so'zni qo'llab bo'lmaydi.

Aruz vaznidan keng foydalangan E.Vohidov she'riyatida esa olmoshlarning tarixiy shakllari keng qo'llanilib o'ziga xos stilistik vazifa bajargan.

She'r aziz olam aro,
Menga tiriklik, jon qadar.
Jon nedir oshiq uchun,
Jondan aziz jonon qadar.

(E.Vohidov. Ishq savdosi, 169-bet)

Dardlashurga do'st qani-yu,
Dillashurga yor qani,
Topganim ul oshnoroqdir,
Bul esa o'rtog'iroq.

(194-bet)

Nechun hushu sadoqatni
Egiz tug'madi bu olam
Tabiat qasdidur yoki
Bu ham bitta xatosidur.

(177-bet)

Misralardan ko'rinadiki, badiiy matnlarda olmoshlarning ko'pligi tarixiy variantlari qo'llanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu badiiy adabiyotning voqealarini qamrab olish ko'lami, ya'ni tarixiyli va tasvir imkoniyatlarining kengligi bilan izohlanadi. FunkSIONAL uslublarning birontasida adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan bunga yo'l qo'yilmaydi. Xullas, matnlardan shu narsa ayonki, olmoshlarning semantik-stilistik ma'nolari badiiy matnda g'oyatda yuqori ekanligidan dalolat beradi.

XULOSA

1. Ot, sifat, fe'l, ravish kabi turkumlar ichida olmoshlar ularning vazifasini bajaruvchi so'z turkumi hisoblanadi. Olmoshlar qadim-qadimdan ishlatib kelinmoqda. Yozma yodgorliklarda o'z ifodasini topgan olmoshlar shundan dalolat beradi.

2. Olmoshlar yozma yoxud og'zaki nutq jarayonida, asosan, denonativ ma'nosida ishlatiladi. Shu bilan birga, boshqa so'z turkumlariga nisbatan passivroq bo'lsa-da, ular konnotativ ma'nolarni ham ifodalab kela oladi.

3. Aniqlanishicha, olmoshlar nutq jarayonida xilma-xil funksional- uslubiy vazifalarni ado etadi. U, birinchidan, nutqning ixchamligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, nutqning tejamkor bo'lishiga olib keladi.

4. Olmoshlarning uslubiy xususiyatlaridan biri shundaki, ayniqsa, og'zaki nutqda xilma-xil variantlar bilan qo'llanadi. Olmoshlarning variantdorligi ularning tarkibi kengaytirilgan shakli, tarkibi qisqartirilgan shaklidan iborat bo'lib, muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi, ya'ni xilma –xil ekspressiv emotsional vazifalarni bajaradi.

5. Boshqa so'z turkumlariga nisbatan, olmoshlarning sof sinonimiyasi unchalik faol emas. Olmoshlar sinonimiyasi nutqning xilma-xilligini ta'minlovchi muhim lisoniy omillardan biridir. Chunki biror kengroq matnda bir xil olmoshni qo'llaverish so'zlovchi yoxud yozuvchi nutqining ta'sirchanligini ta'minlay olmaydi.

6. Og'zaki yoki yozma nutq jarayonida olmoshlar xilma-xil funksional – uslubiy vazifalarni bajaradi. Olmoshlar turli manbalarda, birinchidan, turli xil uslublarga xoslangan bo'ladi. So'zlashuv uslubiga xoslangan (fonetik shakli o'zgarigan, yasovchi affekslarining o'zgarishini olmosh shakllarining olmosh so'zlariga aylanishi, olmoshlarning diolektal shakllari), publisistik asarlarga xoslangan olmoshlar shular jumlasidandir.

Olmoshlarning qo'llanish chastatasida eng yuqori o'rnini so'zlashuv va badiiy nutq egallaydi. Ammo ular anglatgan semantik – stilistik ma'nolar ko'lami badiiy matnida kengdir. Ijodkorning badiiy taffakur olami, ijodiy jarayonidagi vaqt va muhit bunga imkoniyat yaratadi. Badiiy matnda barcha olmoshlarning ishtirok etishi adabiy asarlarda tasvir doirasining kengligi, ijodkorning badiiy mushohada quvvati bilan izohlansa, ayrim olmoshlardagi xoslanganlik ularning tarixiy varianti sifatida tilimizda saqlanib kelayotganligi, ba'zilarida obrazlilik darajasining yuqori ekanligiga bog'liqdir.

Badiiy matnlardagi olmoshlarning semantik - stilistik ma'nolari va funksional stilistik chegaralanuvi tilimizning emotsional - ekspressivlik va amalda bo'lishlik darajasi g'oyatda yuqori ekanligining dalilidir.

Adabiyotlar ro'yxati

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: Шарқ, 1999.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Ilmiy adabiyotlar

4. Абдурақмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1973.
5. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1982.
6. Йўлдошев Б., Шомуродов Ш. Матнда гумон олмошларининг айрим семантик ва функционал-услубий хусусиятлари ҳақида // Тил таракқиётининг деривацион қонуниятлари (Тўплам). – Самарқанд, 2009.
7. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
8. Каримов С. Олмошларнинг функционал – стилистик чегараланиши. // Ўзбек тилининг грамматик қурилиши ва стилистикаси (тўплам). – Самарқанд: СамДУ, 1992.
9. Позилова Н. Иккинчи шахс олмошларининг прагматик хусусиятлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1999, 3-сон, 41 – бет.
10. Суяров И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида олмош. Филол.фан.номз.дисс. – Самарқанд, 1965.
11. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
12. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1975.

13. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980.
14. Қўнғуров Р. Олмош стилистикасига оид айрим мулоҳазалар. // Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар. –Самарқанд, 1981.
15. Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1984.
16. Юсупова О. Кишилик олмошларининг айрим функционал-услубий хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008, 5-сон, 95-98-бетлар.
17. Юсупова О. Олмошларнинг айрим услубий хусусиятлари ҳақида. // Тил ва адабиёт таълими. 2008, 1-сон, 26-30-бетлар.
18. Юсупова О. Ўзбек тили сўзлашув нутқида олмошлар. // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Академнашр, 2010.
19. Ҳакимова Д. Сиз ва сен олмошларининг лексик-семантик хусусиятлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2003, 5-сон, 7-бет.
20. Ҳамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. II-қисм. Тарихий морфология. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2003.
21. Ҳамроев М. Ҳозирги ўзбек тилидаги кўрсатиш олмошларининг функционал-семантик хусусиятлари. –Тошкент: Фан, 2009.
22. Ҳожиева Ҳ. Кишилик олмоши ва ҳурмат маъноси. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000, 4-сон, 37-38-бетлар.

Badiiy adabiyotlar

23. Аҳмад С. Қоракўз мажнун. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001.
24. Воҳидов Е. Ишқ савдоси. IV жилд, I жилд –Тошкент: Шарқ, 2000.
25. Ёқубов О. Улуғбек хазинаси. –Тошкент: Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
26. Муҳаммад Али. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 1997.
27. Мурод Т. Бу дунёда ўлиб бўлмайдди. –Тошкент: Шарқ, 2001.

28. Матжон О. Иймон ёғдуси. –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
29. Мухтор О. Йиллар шамоли. –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
30. Назаров У. Ўзгалар учун. –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
31. Олимжон Ҳ. 10 томлик, 1-том. –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
32. Орипов А. Танланган асарлар. IV жилд, 1-жилд. –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
33. Содиқова Т. Ёнингдаги бахт. –Тошкент: Ёзувчи, 2000.
34. Султонов Х. Бир оқшом эртаги. –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
35. Қиличев Н. Чиғирик. –Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.